------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Ikki o'lchovli massivlar. 2. Jadvallar bilan ishlash 3. Ikki o'lchovli massivlarga misollar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ikki o'lchovli massiv elementlarini saralash va tartiblash bo'icha asosiy bilimlarni hosil qilish	

Pedagogik vazifalar: 1. Massivlar to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Ikki o'lchovli massivlar to'g'risida mukammal tasavvurlar hosil qilish. 3. Ikki o'lchovli massivlar elementlari bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.		O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Massivlar bo'yicha to'g'ri tasavvurlar hosil qiladilar. 2. Ikki o'lchovli massiv elementlari bilan ishlash ko'nikma va malakasini o'zlashtirib oladilar. 3. Ikki o'lchovli massivlarni saralash va tartiblash bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi	
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.	
O'qitish shakli	Jamo'a, guruh va juftlikda ishlash.	
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya	

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Massivlar necha xil bo'ladi nima? 2. Massivlarni saralash qanday bajariladi? 3. Masivlarni tartiblashga misol keltiring?	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daftarlari-ga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

12– mavzu	Belgili va satrli massivlar. Massivlarni initsializatsiyalash.
------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vahti: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Belgili va satrli massivlar 2. Massivlarni initsializatsiyalash masalasi. 3. Ko'p o'lchovli massivlarni initsializatsiyalash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ikki o'lchovli massiv elementlarini saralash va tartiblash bo'icha asosiy bilimlarni hosil qilish	
Pedagogik vazifalar: 1. Belgili va satrli massivlar mas-sivlar to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Massivlarni initsializatsiyalash masalasi tushuntirish. 3. Ko'p o'lchovli massivlarni initsializatsiyalash.	O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Belgili va satrli massivlar bo'yicha to'g'ri tasavvurlar hosil qiladilar. 2. Massivlarni initsializatsiyalash malakalari shakllanadi. 3. Ko'p o'lchovli massivlarni initsializatsiyalash malakalari shakllanadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Belgili va satrli massivlar qanday massivlar? 2. Bir o'lchovli massivlarni qanday initsializatsiyalanadi ? 3. Ko'p o'lchovli massivlar qanday	2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,

	initsializatsiyalanadi?	
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

13 – mavzu	Satrlar va ular ustida amallar. Belgi va satrlar. Satrlar bilan ishlash funksiyalari. String turidagi satrlar. String turidagi satrlar bilan ishlash funksiyalari.
-------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Belgili va satrli turlar. 2. Satrli ma'lumotlar bilan ishlash amallari. 3. Satrlar bilan ishlash funksiya va proceduralari. 4. Satrlar bilan ishlashga doir dasturlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: belgili va satrli ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Belgili turlar to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Satrli ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. 3. Satrlar bilan ishlash funksiya va proceduralaridan mustaqil foydalanish malakalariga ega bo'lish.	O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Belgili va satrli turlar bo'yicha bilim hosil qiladilar. 2. Satrlar bilan ishlash ko'nikma va malaka-sini o'zlashtirib oladilar. 3. Satrlar bilan ishlash funksiya va proceduralaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich.	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi	2.1. Eshitadi. Navbat bilan

Asosiy (60 daqiqa)	savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Belgili tur nima? 2. Satrli tur nima uchun ishlatiladi? 3. Satrlar bilan ishlashda qanday funk-siya va proseduralar ishlatiladi?	bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daftarlariga chizadi, jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

14 – mavzu	Funksiyadan foydalanish asoslari. Foydalanuvchi funksiyalari. Funksiyalarni ta'riflash va murojoat qilish. Funksiyani aniqlash va e'lon qilish. Lokal va global parametrlar.
-------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. C++ tilida qism dastur tushunchasi. 2. Function ning umumiy tuzilishi va uning tavsifi. 3. Funksiyani aniqlash va e'lon qilish. 4. Qism dasturga murojaatni amalga oshirish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: qism dastur - funksiyadan foydalanib Programmalash bo'yicha mukammal ko'nikmalar hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Qism dastur, uning turlari to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Functiondan foydalanib dasturlash bo'yicha mukammal ko'nikmalarga ega bo'lish. 3. Qism dasturdan mustaqil foydalanish malakalarini shakllantirish.	O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Qism dasturlar bo'yicha bilim hosil qiladilar. 2. Function bilan ishlash ko'nikma va malakasini o'zlashtirib oladilar. 3. Qism dasturdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi .
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar,

	grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Qism dastur nima? 2. Funksiya nima uchun ishlatiladi? 3. Funksiya qanday aniqlanadi va e'lon qilinadi? 3. Qism dastur qanday tavsiflanadi?	2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daftarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

15 – mavzu	Masalalarni yechishda funksiyalardan foydalanish
-------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. C++ tilida qism dastur tushunchasini takrorlash. 5. Funksiya tushunchasi uchun masalalar tanlash 6. Tanlangan masalalar uchun dasturlar yaratish. 7. Qism dasturga murojaatni amalga oshirish usullarini yoritish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Funksiyadan foydalanib Programmash bo'yicha mukammal ko'nikmalar hosil qilish.	

Pedagogik vazifalar: 1. Qism dastur, uning turlari to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Functiondan foydalanib dasturlashga mos masalalarni ajrata bilish ko'nikmalarini shakllantirish 3. Qism dasturdan mustaqil foydalanish malakalarini shakllantirish.		O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Qism dasturlar bo'yicha bilim hosil qiladilar. 2. Funksiyadan foydalanib dastur tuzish ko'nikma va malakasini o'zlashtirib oladilar. 3. Rekursiv murojaatni o'rganishadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi	
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.	
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.	
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya	

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Qism dastur nima? 2. Funksiya nima uchun ishlatiladi? 3. Funksiya qanday aniqlanadi va e'lon qilinadi? 3. Qism dastur qanday tavsiflanadi?	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

16– mavzu	C++ da grafika. C++ tilining grafik tartibida ishlash asoslari. Chizmalarni hosil qilish uchun funktsiya va proseduralar.
------------------	--

Ma’ruza mashg’ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma’ruza
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1. C++ tiziminng grafik holati. 2. Grafikaning procedura va funktsiyalari.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: grafik holatni yuklash va undan foydalanish haqida bilimlarni hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Grafik ma’lumotlar va ularning turlari to’g’risida umumiy bilimlarni hosil qilish. 2. Grafik holatda ishlash bo’yicha tasavvurga ega bo’lish. 3. Graph moduli funktsiya–proceduralari bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.	O’quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Grafik ma’lumotlar bilan ishlash bo’yicha bilim hosil qiladilar. 2. Graph moduli bilan ishlash ko’nikma va malakasini o’zlashtirib oladilar.
O’qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma’ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, “ha-yo’q” texnikasi
O’qitish vositalari	Ma’ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O’qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1- bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O’quv mashg’ulotining mavzu va rejasini ma’lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg’ulot muammoli tarzda o’tishini e’lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2- bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e’tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so’rov o’tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o’rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o’qishga chorlaydi: 1. Grafik ma’lumotlar nima? 2. Grafik ma’lumotlar bilan ishlash	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to’ldiradilar. 2.2. O’ylaydi, javob beradi va to’g’ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.

	modulu qanday? 3. Grafikada qanday funksiya va proseduralardan foydalaniladi?	2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

17– mavzu	Bo'yash, chizish usullari va stillari. Grafik tartibda shriftlar. Dinamik xotira. Chizmalarni harakatlantirish..
------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Bo'yash, chizish usullari. 2. Grafik holatida matnlarni chiqarish. 3. Ob'yektlarni harakatlantirish va boshqarish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: grafik holatda fiyralarni bo'yash, chizish usullari va ob'yektlarni harakatlantirish bo'yicha mukammal tasavvurlar hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Grafik holatda fiyralarni bo'yash, chizish usullari bilan tanishish. 2. Ob'yektlarni harakatlantirish bo'yicha usullarini o'rganish.	O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Grafik holatda fiyralarni bo'yash, chizish usullari bilan tanishadilar. 2. Obyektlarni harakatlantirish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi .
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga	2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarini aytadi, daf-tarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini

	chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Grafik holatda fiyralarni bo'yash usullarini bayon qiling. 2. Grafik muhitda ob'ektlar qanday harakatlantirila-di? 3. Ob'ektlar qanday boshqariladi?	to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.
18 - mavzu	Fayl tushunchasi. Matn va binar fayllar. Fayl va satr oqimlar. Formatli o'qish va yozish funksiyalari. Fayldan o'qish va yozish funksiyalari. Fayl ko'rsatkichni boshqarish funksiyalari.	

Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 51 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, Interfaol ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Fayl tushunchasi, matn va binar fayllar. 2. O'qish-yozish oqimlar. 3. Belgilarni, satrlarni, formatli o'qish-yozish funksiyalari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: fayllar va ularni qayta ishlashga doir masalalarni qayta ishlash bo'yicha mukammal tasavvurga ega bo'lish.

Pedagogik vazifalar: 1. Fayllar to'g'risida umumiy va asosiy bilimlarni hosil qilish. 2. Fayllar bilan ishlashga doir dastur tuzish bo'yicha mukammal tasavvurlar hosil qilish. 3. Matnli va binar fayllarga doir dastur bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.		O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1. Fayllardan foydalanib dastur tuzish bo'yicha bilim hosil qiladilar. 2. Matnli va binary fayllarga doir dastur tuzish bo'yicha mukammal tasavvurga ega bo'lish. 3. Belgilarni, satrlarni, formatli o'qish-yozish funksiyalari bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllanadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Interfaol ma'ruza, keys-stadi bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi	
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.	
O'qitish shakli	Jamoat, guruh va juftlikda ishlash.	
O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya	

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich.	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu	1.1. Eshitadilar va yozib

Kirish (10 daqiqa)	va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	oladilar.
2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashti-rish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta-ga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: 1. Fayllarga qanday dastyur tuzish mumkin? 2. Faylli dastur tuzish ketma-ketli-gini ayting? 3. Matnli fayl nima? 4. Dastur natijasi nimadan iborat bo'ladi?	2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daftarlariga chizadi, jadval-ning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi,
3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rileydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi.

O'quv materiallari

Ma'ruza matni

1-bob. Zamonaviy informatika va axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari

1-ma'ruza

Mavzu: Kompyuter va uning programma ta'minoti strukturasi Ma'lumotlarni kompyuterda saqlashni tashkillashtirish. Fon Neyman prinsiplari

Reja:

1. Axborotlashgan jamiyat va axborot madaniyati. Axborot -kommunikatsion texnologiyalarni O'zbekistonda joriy etish.
2. Informatika fanining predmeti.
3. Informatikaning asosiy qismlari.
4. Informatika va HT ning rivojlanish tarixi.

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda informatika to'g'risida umumiy va asosiy tushunchalarni hisil qilish.
2. Informatika va informatsion jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.
3. Informatika va HT ning rivojlanish tarixi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch iboralar: *informatika, dokumentalistika, informasion texnologiya, mexanik mashina, elektron hisoblash mashinasi, EHM avlodlari.*

Dars o'tish vositalari: *sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, Power Point dasturi, ma'ruza bo'yicha slaydlar.*

Dars o'tish usuli: *namoyish dasturiy vositalar orqali, jonli muloqotli ma'ruza.*

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: *xonaning tozaligi, jihozlanilishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati*– 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: *o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish* - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

Axborotlashgan jamiyat va axborot madaniyati. Axborot -kommunikatsion texnologiyalarni O'zbekistonda joriy etish.

Axborotlashgan jamiyat deganda – barcha faoliyat sohaslariga intellektual mehnat quroli sifatida dunyoviy bilim manbalariga, kutubxonalariga kirish, ulardan samarali foydalanish, ixtiyoriy (qogozdagi, matn yoki tasvir ko'rinishidagi) axborotni juda qisqa muddat ichida qayta ishlash, jarayonlarni, voqealarni va hodisalarni modellashtirish imkonini beruvchi kompyuterlar va boshqa axborot texnika va texnologiyalar kiritilgan jamiyatni tushunamiz.

Axborotlashgan jamiyatda inson axborotlarni qayta ishlashda zamonaviy vositalar bilan ishlashga o'zini tayyorlashi kerak. Bu shuni ko'rsatadiki inson informatsiyalarga murojaat etishda ma'lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak.

Axborot madaniyati – axborotlar bilan maqsadga intilib ishlashni bilish va axborotlarni olish uchun, qayta ishlash, kompyuterli informatsion texnologiyani va zamonaviy texnik vositalarni va usullarni qo'llashni anglatadi. Faqat yuqori darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lgan kishilargina tabiiy, ijtimoiy va ekologik resurslarni aniq xisobini qila oladilar. Bu esa barcha tarmoq yo'nalishlaridagi boshqaruv masalalarini tezlik bilan xal etish imkonini beradi va respublikani ravnaq topishida muhim o'rin egallaydi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot - hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

1994 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish kontseptsiyasini qabul qildi. Ushbu Kontseptsianing asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar quyidagilardan iboratdir:

- milliy axborot-hisoblash tarmog'ini yaratish;
- axborotlarga tovar sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va me'yoriy hujjatlarini yuritish;
- axborotlarni qayta ishlashda jahon standartlariga rioya qilish;
- informatika industriyasini yaratish va rivojlantirish;
- axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- informatika vositalaridan foydalanuvchilarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Kontseptsianing asosiy qoidalari hisobga olingan "O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi" ishlab chiqildi, u uch maqsadli dasturni o'z ichiga oladi:

- a) milliy axborot — hisoblash tarmog'i;
- b) Elektron hisoblash mashinalarni matematik va dasturiy ta'minlash;
- v) shaxsiy kompyuter.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirishning olti ustivor yo'nalishi quyidagilardan iborat:

1. Davlat statistika tizimi, kreditmoliya va bank tizimlari.
2. Elektron ma'lumotlar bazasi.
3. Fan-texnika axboroti (FTA) tarmog'i
4. Ta'lim, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy muhofaza va sog'liqni saqlash sohalari axborot tizimlari.
5. Ma'lumotlarni uzatish va aloqa tizimlari.
6. Favqulodda holatlarning oldini olish va xabar berishning axborot tizimlari.

Mazkur dasturda Vazirlik va mahkamalar axborot tarmoqlari, Milliy axborot-hisoblash tarmog'ini yaratish, kompyuterlar va hisoblash texnikasi vositalarini

ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, hujjatlashtirishning me'yoriy-uslubiy va huquqiy tizimini yaratish va boshqalar joy olgan.

Maqsadli dasturlar va ustuvor izlanishlar kiritilgan ko'pgina axborot tizimlari loyihalash va amalga oshirish bosqichida turibdi. Bunday tizimlarga soliq organlari, Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Tashqi ishlar Vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika Vazirligi, Davlat mulk qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi va boshqalarning kompyuter tizimlarini kiritish mumkin. Bir qator yirik loyihalar, jumladan Tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta'minlashning yagona avtomatlashtirilgan davlat tizimi, Fan-texnika axborotining respublika tarmog'i, Aholi bandligi xizmatining kompyuter tizimi, Ichki ishlar organlarining yagona axborot tizimi, Adliya Vazirligining axborot tizimi va boshqalar ishlab chiqilmoqda.

Milliy axborot hisoblash tarmog'i davlat aloqa tizimi negizida ishlaydigan va yagona o'rnatilgan qoidalarga rioya qilish asosida qurilgan davlat va idoraviy xususiyatga ega axborot hisoblash tarmoqlari mujassamlashganligini o'zida namoyon etuvchi ochiq, tizim sifatida yaratilishi lozim.

O'zbekistanda axborot texnologiyalarini tadbiq etish va rivojlantirish uchun quyidagi qonunlar ham qabul qilindi: "Hududiy axborotlash markazlarida, bosh axborotlash markazlarida axborotni muhofaza etish, hamda axborot but saqlanishi uchun mansabdor shaxslar javobgarligi qoidalari" (1996), "Axborotlashtirish to'g'risida" (2004), "Elektron raqamli imzo to'g'risida" (2004), "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" (2004), "Elektron tijorat to'g'risida" (2004).

Fanlar akademiyasi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari va firmalarda kompyuter texnikasi, aloqa, dasturiy va axborot ta'minoti, axborot tizimlari bo'yicha malakali kadrlar ishlaymoqda.

Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashi uchun zamonaviy axborot (kompyuter) texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalariga keng joriy etish zarur. Buning uchun, birinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish, davlat muassasalari va xo'jalik sub'ektlari, muassasa va tashkilotlar, xususiyl shaxslar uchun axborot xizmatini yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, ilm, fan, ta'lim, texnika, ijtimoiy, iqtisodiyot va uni boshqarish sohalarida axborot tizimlarini shakllantirish. Uchinchidan, respublikaning jahon axborot tizimlari va xalqaro tarmoqlarga ulanishini ta'minlash kerak.

Programmalash asoslari fanining predmeti.

Informatika to'g'risida gap ketganda, har bir kishi qandaydir axborotlar haqida fikr borayotganligini va bu axborotlar nimagadir yoki kimgadir tegishli ekanligini tushunadi. Bu axborotlar qayerdan olingan, qanday saqlangan va ularni manbai qayerda ekanligi ko'pchilikni qiziqtirishi mumkin.

Qadimda insonlar, qog'oz mavjud bo'lmagan vaqtlarda, o'sha davrga tegishli ma'lumotlarni toshlarga, daraxt barglariga, gildan (loydan) yasalgan tablichkalarga yozib qoldirishgan. Bu ma'lumotlar esa cherkovlarda yoki ibodatxonalarda saqlangan. Shuning uchun xam bu ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'rganish

hammaga ham nasib qilavermagan. O'qishni yoki yozishni bilmagan kishilar ulardan foydalana olishmagan.

Vaqt o'tishi bilan insonlar o'zgardi, jamiyatning tuzumi o'zgardi. Jamiyatda o'qimishli kishilar ko'paydi. Yangidan-yangi axborotlar hosil bo'ldi. Bu axborotlarni ko'paytirish va ularni barcha qiziquvchi kishilarga tarqatish muammosi hosil bo'ldi. Axborotlarni tarqatish vositasi sifatida asosan kitoblardan, rasmlardan va hokazolardan foydalanila boshlandi. Chop etilgan kitoblardan yoki rasmlardan kishilar jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar va voqyealar to'g'risida axborotlarga ega bo'lishdi.

Yillar o'tishi bilan hosil bo'ladigan axborotlar hajmi ortdi. Axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun nashriyotlar, tipografiyalar qurildi, ya'ni informasion sanoatga asos solindi.

XX asrda fan- texnikaning va sanoatning rivojlanishi natijasida hosil bo'ladigan va saqlanadigan axborotlar hajmi shu darajada ortib ketdiki, natijada ularning hammasini insonlar qabul qilishi, saqlashi va qayta ishlashi mumkin bo'lmay qoldi.

Hosil bo'layotgan axborotlarni sinflarga bo'lish, saqlash, axborotlarni harakatlanish qonuniyatini yaratish muammosi hosil bo'ldi. Bu muammoni hal qilish uchun olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida **informatika** deb atalmish fan paydo bo'ldi. Boshlang'ich bosqichda **informatika** kutubxona ishining bazasi hisoblangan va ko'p yillar yordamida uni mukammallashtirish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib kelgan.


XX asrning 50- yillarida yangi fan - informatika faniga asos solindi. Informatika termini lotincha "informatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tushuntirish, xabar qilish, bayon etish ma'nolarini anglatadi.

Informatika inson faoliyatining turli jabhalarida axborotlarni izlash va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandır.

Informatikaning inson faoliyati mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasi rivojlanishi bilan bog'liq. Bunda asosiy xizmat mikroprotsessor texnikasiga to'g'ri keladi. Informatika kompyuter texnikasi rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi va u siz mavjud bo'la olmaydi.

Informatika keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog'liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o'zida namoyon etadi.

Informatikani tor ma'noda o'zaro aloqador uch qism – texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. O'z navbatida informatikani ham umuman, ham qismlari bo'yicha turli jihatlaridan: iqtisodiyot tarmog'i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. (1-rasm)



1-rasm. Informatikaning tarmoq, fan, amaliy fan sohalari sifatida tuzilishi

Informatika iqtisodiyot tarmog'i sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalarning bir turda jamlanishidan iborat bo'ladi.

Fundamental fan sifatida informatika, kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan, amaliy fan sohasi sifatida esa quyidagilar bilan shug'ullanadi:

a) axborot jarayonlaridagi qonuniyatlarni o'rganish (axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tarqatish);

b) inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsion-axborot modellarini yaratish ;

c) aniq bir sohalarda axborot tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning hayotiy bosqichini, ularni ishlab chiqish, ishlashni va hokazolarni loyihalash, ishlab chiqish bosqichlari uchun tavsiyalar tayyorlash.

Kompyuter texnikasi va informatsion texnologiyaning keng rivojlanishi jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'lib, u turli informatsiyalarni qo'llash asosida axborotlashgan jamiyat nomini oldi. Axborotlashgan jamiyat aqliy mehnatni oshiradi. Turli tizimlar, kompyuter texnikasi, kompyuter tarmoqlari informatsion texnologiya, telekommunikatsiya aloqasi, axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik bazasi bo'lib hisoblanadi.

Informatikaning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- istalgan xususiyatdagi axborot jarayonlarini tadqiq etish;
- axborot jarayonlarini tadqiq etishdan olingan natijalar negizida axborotni qayta ishlaydigan axborot tizimini ishlab chiqish va yangi texnologiyani yaratish;
- jamiyat hayotining barcha sohalarida kompyuter texnikasi va texnologiyasidan samarali foydalanishning ilmiy va muxandislik muammolarini yaratish, tatbiq etish va ta'minlashni xal etish.

Informatika o'z-o'zicha mavjud bo'lmay, balki boshqa sohalaridagi muammolarni hal etish uchun yangi axboriy texnika va texnologiyalarini yaratishga qaratilgan kompleks ilmiy - texnik sohadir. U boshqa sohalar, hatto jarayonlar va hodisalar noformallashuvi tufayli miqdoriy uslublarni qo'llash mumkin emas deb hisoblanadigan sohalariga ham tadqiqot uslub va vositalarini taqdim etadi. Informatikada kompyuter texnikasi sharofati tufayli amaliy ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan matematik modellash uslublarining hal qilinishini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Zamonaviy informatikani quyidagi **3 yo'nalishi** tashkil etadi:

- 1) Axborotlarni avtomatik yig'ish, saqlash, ishlash va uzatish usullari va algoritmlarini yaratish;**
- 2) Axborotlarni qayta ishlash, tasavvurlash usullari va algo-ritmlarini yaratish.**
- 3) Yuqoridagi ikkita yo'nalishni rivojlantirish uchun elektron hisoblash mashinalari va texnologiyalarni yaratish.**

Ingliz tilida **informatika** so'zining sinonimi **computerscieni** (hisoblash fani) bo'lib, u informatikaning predmetini to'la yoritmaydi. **Informatika** termini bizga franso'z tilidan kelgan bo'lib, kompyuterlar va ularni qo'llanilishi haqidagi fanni anglatadi.

Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixi.

Informatika o'rganilayotgan obyekt va u to'g'risidagi bilimlar oralig'idan joy egallab qoladi. Haqiqatan ham, inson atrof muhitni o'rgana turib, axborot oladi, uni biron narsaga belgilab, yozib yoki saqlab qo'yadi. **Axborot** tashuvchi sifatida adabiyot, magnit lentalar, kartalar, sxemalar ishlatilishi mumkin. Axborotlarni qayta ishlash orqali, bizni o'rab turgan dunyo to'g'risida bilimga ega bo'lamiz, natijada yangi izlanish usullarini yaratish, yangi axborotlarga ega bo'lish, ularni saqlash, qayta ishlash va hokazo imkoniyatlar hosil bo'ladi.

Axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tasvirlashning samarali usullarini yaratish informatikaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qoldi. Asrimizning 50-yillarigacha masalaning bunday qo'yilishi haqiqat bo'lib, axborotlarni yig'ish va qayta ishlash usullari bo'yicha umumiylik yo'qdek edi. Tibbiyotda, geografiyada, fizikada, filosofiyada va boshqa sohalarida axborotlarni yig'ish va qayta ishlashda

bog'liqlik yo'q edi. Ko'pchiliklarning fikricha matematika bilan fizika, ximiya bilan tibbiyot o'rtasida bog'liqlik borligi tan olinar edi. **Kompyuter**larning paydo bo'lishi bilan bu holat tezlik bilan sezilarli darajada o'zgardi.

Hisoblash texnikasining tarixi bir necha davrni o'z ichiga oladi:

Mexanik mashinalargacha bo'lgan davr

- Mexanik mashinalar davri
- Elektromexanik mashinalar davri
- Elektron hisoblash mashinalar davri

Mexanik mashinalargacha bo'lgan davr. Inson hisoblay boshlashidagi dastlabki hisoblash vositasi bo'lib odamlarning barmoqlari xizmat qilgan. Odam tabiiy hisoblash vositasi bo'lmish qo'l va oyoq barmoqlari yordamida faqat sanash ishlarini bajargan. Maskur vosita yordamida biror hisoblash nari tursin, balki ikki yoki undan ortiq raqamli sonlarni qo'shish ham juda qiyin yoki umuman mumkin emas. Shuning uchun asta-sekin sun'iy hisoblash vositalari vujudga kela boshladi. Shubhasiz birinchi hisoblash vositalari toshlar va tayoqchalardir. So'ngra birka, abak, Neper tayoqchalari, rus cho'tlari vujudga keldi.

Mexanik mashinalar davri. Nemis olimi Vilgelm Shikkard (1592-1636) tomonidan 1623 yili ixtiro qilingan mexanik moslamalar bilan mexanik mashinalar davri boshlandi. Aslida esa, Shikkardning mashinasi ham birinchi emas ekan. 1967 yili Madriddagi milliy kutubxonada Leonardo da Vinchining nashr etilmagan ikki jildli qo'lyozmasi topilgan. Qo'lyozmadagi chizmalar ichida o'n uchta raqamli sonlarni qo'sha oladigan hisoblash qurilmasining chizmasi mavjud bo'lib, ular asosida mashina yaratilganda, bu qo'shish va ayirish amallarini bajaruvchi qurilma ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunga ko'ra, uyg'onish davrining buyuk rassomi, matematigi italiyalik olim Leonardo da Vinchi (1452-1519 yillar) birinchi hisoblash qurilmasining ixtirochisi deb hisoblanadi. Vilgelm Shikkard yasagan mexanik hisoblash mashinasi ham, Leonardo da Vinchining loyihasi ham hayotda qo'llanilmadi.

"Frantso'zlarning Arximedi" degan nomni olgan olim Blez Paskal 1642 yilda keyinchalik keng ko'lamda go'llanilgan va keyingi hisoblash mashinalari uchun asos bo'lib xizmat qilgan mexanik mashina yaratdi.

Ana shu ixtiro tufayli quyidagi savollarga dastlabki javoblar olindi:

- Sonlarni mashinada qanday qilib tasvirlash kerak?
- Hisoblash uchun lozim bo'lgan boshlang'ich sonlarni mashinada qay usulda kiritish kerak?
- Arifmetik amallarni mexanik ravishda qanday bajarish kerak?
- Amal bajarish davomida o'nliklarni qanday qilib o'tkazish kerak?
- Amal bajarish natijasida hosil qilingan sonlarni qanday tasvirlash kerak?

1662-1645 yillarda Pascal mexanik tarzda hisoblovchi qurilmasining 50 dan ziyod shakillarini yaratdi. Ularning eng mukammali 1645 yilda yaratildi va "arifmetik mashina" yoki "Paskal g'ildiragi" deb nomlandi.

1820 yili Sharl de Kolmar tomonidan birinchi kalkulyator- "Arifmometr" ni yaratdi. U qariyb 90 yil (ba'zi kichik o'zgarishlar bilan qayta ishlangan holda) qo'llanildi.

Elektromexanik mashinalar davri. Mexanik hisoblash mashinalarida mos

qurilmalar qo'l kuchi bilan harakatga keltirilar edi. Mana shu vazifani elektr energiyasi yordamida amalga oshiruvchi hisoblash mashinalarining yaratilishi elektromexanik hisoblash mashinalar davrini boshlab berdi. Bunday mashina loyihasi dastlab Rossiyada yashab turgan shved olimi V.T.Odner tomonidan 1875 yilda yaratildi. 1925 yilda V.Bush elektr releda yig'ilgan hisoblash mashinasini yasadi va hayotga tatbiq etdi.

Elektron hisoblash mashinalari davri. 1943-1945 yillarda birinchi bo'lib AQSHdagi Pensilvaniya universitetida Mouchli va Ekkert 70 tonnaga yaqin og'irlikdagi, 150 kvadrat metrli xonani egallaydigan va 18 mingta elektron lampaga ega bo'lgan ulkan elektron hisoblash mashinasi - "ENIAC" yaratildi. U elektron hisoblash mashinalari davrini boshlab berdi.



1947 yilda Bell laboratoriyasining hodimlari Uilyam Shokli, Jon Bardin va Uolter Berteyn tomonidan birinchi tranzistor yaratildi. Mazkur kashfiyot uchun ular 1956 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Qisqa davr ichida, tranzistor va integral sxemaning kashfiyoti tufayli, bugungi kungacha elektron hisoblash mashinalarining to'rtta avlodi yaratildi:

Birinchi sovet EHM 1950 yilda akademik S.A.Lebedev rahbarligida yaratildi. U **MESM (kichik elektron hisoblash mashinasi)** deb ataldi. Bir yildan keyin S.A.Lebedev rahbarligida **BESM (katta elektron hisoblash mashinasi)** yaratildi.

Birinchi avlod mashinalari. (1950 yillar boshlari) Birinchi avlod EHMlari markaziy prosessorining elementlar bazasi sifatida umumiy soni bir necha o'n minglarga yetgan elektron lampalardan foydalanilgan. Operativ xotira ferit uzaklar bloklarida qurilgan. Ko'plab ishlab chiqarilgan sovet davri mashinalaridan birinchi avlodga mansublari Strella (1953 y.), Ural (1954y.), M-20 (1959y.), Minsk -1 (1960 y.), BESM seriyali qator mashinalar kiradi.

Sekundiga 10 000 amalni bajaradi. Xotirasiga 2047 tagacha son sig'adi.

Operativ xotira hajmi mashinaviy so'zning uzunligi bilan ikkilik raqamlar yoki bitlar (bit-bo'lak, bo'lakcha ma'nosini anglatadigan inglizcha bit so'zidan olingan bo'lib, bitta ikkilik raqamidan tashkil topgan ma'lumotdagi axborot miqdori kabi aniqlanadigan informatsiya birligini anglatadi) soni bilan aniqlanadi. Mashinaviy so'zning standart uzunligi 8 ta ikkilik raqamni o'z ichiga oladi bunday birlikni bayt (bite-bo'lakcha) deyiladi: 1 bayt- 8 bit. Shunga o'xshash kattaroq o'lchov birliklari ham ishlatiladi: 1-kilobayt (kb)=1024 bayt, 1 megabayt (mg)=1024 kb.

Ikkinchi avlod mashinalari. (1960 yillar boshlari). Ikkinchi avlod mashinalari birinchi avlod mashinalaridan farqli o'laroq markaziy prosessorining elementlar

bazasi sifatida tranzistorlar ishlatilgan operativ xotira, avvalgidek ferromagnit o'zaklaridan quriladi, ammo ularning o'lchovlari keskin kamaytirilgan edi.

Ikkinchi avlod mashinalari o'zining parametrlari bo'yicha birinchi avlod mashinalaridan keskin ustunlikka ega edi. Ular bir sekundda 100 000 taga yaqin amallardan iborat tezkorlikka va 10 000 ta so'zdan iborat operativ xotira xajmiga ega edi. Tranzistorlar asosida yig'ilgan.

Ikkinchi avlod mashinalari qatoriga Rossiyada ishlab chiqarilgan Mir, Minsk-22, M-220, BESM-4, Minsk-32 va boshqalar kiradi.

Birinchi avlod mashinalarida ishlaganda dasturlovchi dasto'rni bevosita mashina tilida yozar, ikkinchi avlod mashinalarining ko'pchiligi esa mashinalar tilida Programmalashdan algoritmik tillarda Programmalashga o'tilgan. Birinchi algoritmik tillar 50-yillarning oxiri 60-yillarning boshida paydo bo'ldi. Misol sifatida Algol-60 ni keltirish mumkin.

Algoritmik tillarning muhim afzalligi ularning universalligida va xalkaro standartning mavjudligidadir, bu tillarda yozilgan dastur qanday konkret tur mashinaga mo'ljallanganiga mutlaqo bog'lik emas. Algoritmik tilda yozilgan dastur EHMda bajarilishi uchun u, avvalo, shu universal tildan mashinaning o'z tiliga o'tkazilishi lozim. Buni EHM ning o'zi maxsus dastur **-traslyator** (translator-tarjimon) yordamida amalga oshiriladi.

Uchinchi avlod mashinalari. (1960 yillar oxiri va 70 yillar boshlari). Yarim o'tkazgichlarni ishlab chikarish texnologiyasining takomillashishi **integral sxemalar** deb nom olgan mikroelektron qurilmalarining yaratilishiga olib keldi.

Alohida tranzistorlar o'rniga integral sxemalardan foydalanish EHM uzellari o'lchamlarini ancha kamaytirishga, ularning tejamliligiga va mustaxkamligini oshirishga imkon beradi. Integral sxemalar uchinchi avlod mashinalari markaziy prosessorlarining elementlar bazasi bo'lib qoladi.

Hisoblash texnikasida integral sxemalarining keng qo'llanilishi ularni takomillashtirish, tezkorligini sekundiga 10 mln. ta amalga yetkazish, operativ xotirani bir necha megabaytgacha (MB) kengaytirish kabi yangi imkoniyatlar ochdi. Uchinchi avlod mashinalariga misol qilib yagona sistemadagi EHM (YeS EVM) larni keltirish mumkin. Bu sistema SEV ga a'zo socialistik mamlakatlarning halqaro xamkorligi tomonidan 1969 yil dekabrda tasdiqlangan ko'p tomonlama kelishuvi buyicha yaratildi va ularni 1972 yildan boshlab ishlab chiqarildi. Keyingi yillarda YeS EVM ning uzgartirilgan modellarini chiqarish boshlandi. Yagona sistemadagi EXM qator kapitalistik mamlakatlardagi EXM modellari bilan raqobat qila oladi. Turiga qarab sekundiga 2 mln. gacha turli amallarni bajara oladi.

To'rtinchi avlod mashinalari. To'rtinchi avlod mashinalari- bu hisoblash texnikasi rivojlanishida yangi qadamdir. To'rtinchi avlod EHMlari katta integral sxemalarda qurilgan, ko'p prosessorli mashinalardir. Bu turdagi EHM larning tezligi sekundiga 10 million amaldan ortiqdir.

To'rtinchi avlodga tegishli bo'lgan hisoblash mashinalaridan biri ko'p prosessorli hisoblash kompleksi- «ELBRUS» dir. KKK «Elbrus» zamonaviy aloqa yo'llari orqali juda ko'p EHM larni yagona markazga birlashtirish va ularga uzoqda joylashgan terminallarni ulash imkoniyatiga ega. Bu holda barcha foydalanuvchilar ixtiyoriy EHM dan foydalanish va undagi axborotlarni olish

imkoniyatiga ega bo'la oladilar. EHMlardan foydalanishning bu usuli (ko'pchilikning bir paytda foydalanishi) hisoblash tarmog'i bo'lib, u o'zaro bir-biriga ulangan va ma'lumotlarni bir-biriga tezda uzata oladigan EHMlar guruxidan iboratdir.

Ushbu EHM tarkibidagi *arifmetik – mantiqiy, boshqarish, xotira, axborotni kiritish va chiqarish* kabi qurilmalar uning arxitekturasini tashkil etadi. Ulardan arifmetik – mantiqiy va boshqarish qurilmalari *prosessor(markaziy prosessor)*ni tashkil qiladilar.

Shunday qilib, universal EHM lar arxitekturasiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Birinchi avlod EHM lari - bu tarkibida tezkor xotira qurilmasi ham bor bo'lgan «bazaviy EHM»dir;

Ikkinchi avlod EHM lari- bu birinchi avlod mashinasidan tarkibida tashqi xotira qurilmasi ham borligi bilan farq qiladi;

Uchinchi avlod EHM lari- bu ikkinchi avlod mashinasidan tarkibida almashuv (kanal) qurilmasi ham borligi bilan farq qiladi. Almashuv (kanal) qurilmasi tezkor xotira bilan EHM ning tashqi qurilmalari orasida axborot almashuviga imkon beradi. Shu tufayli ko'p dasturli (bir vaqtning o'zida, misol uchun, axborotni chop etish, musiqani ijro etish, ma'lumotlarni kiritish va hokazo) rejimni amalga oshirish mumkin bo'ladi. BESM-6, ES EHM va boshqalar uchinchi avlod mashinalari sirasiga kiradi ;

EHM AVLODLARI	SHU AVLOD EHM IGA MISOL	ASOSIY (BAZAVIY) ELEMENTI	ARIFMETIK AMAL BAJARISH TEZLIGI	XOTIRA SIG'IMI
1-AVLOD 1940-1950 y	BESM MINSK-1	ELEKTRON LAMPA	1 sekundda 10^4 gacha	1024 So'z
2-AVLOD 1950-1965 y	BESM-6 MINSK-2	TRANZISTOR DIOD	1 sekundda 10^5 gacha	32000 So'z
3-AVLOD 1965- 1975 y	Minsk-32 Razdan IBM-360	INTEGRAL SXEMA	1 sekundda $2 \cdot 10^6$ gacha	2048 So'z
4-AVLOD 1975 yildan boshlab	PRAVETS ES-1010 dan ES-1060gacha IBM	KATTA integral sxema	1 sekundda 10^8 va undan yuqori	1024 Mbayt va undan yuqori

To'rtinchi avlod EHMlari - bu uchinchi avlod mashinasidan tarkibida har biri parallel ravishda ishlashi mumkin bo'lgan ikki va undan ko'p prosessorliligi bilan farq qiladi. Cheget, Elbrus-2 kabi EHM lar to'rtinchi avlodga mansub. Toshkentdagi «Algoritm» zavodida ishlab chiqarishga mo'ljallangan Elbrus-2 EHM tarkibida har biri sekundiga 1 mln amallarni bajarish tezligida ishlaydigan 10 ta prosessor bor.

Beshinchi avlod EHM lari - bu to'rtinchi avlod mashinasidan tarkibida intellektual interfeys (bilimlar bazasi, masalalarni avtomatik ravishda yechish ta'minoti, dialog prosessori qurilmalari) borligi bilan farq qiluvchi, universal sun'iy tafakkur mashinalaridir.

Universal EHMlarning rivojlanish tarixida alohida o'rinni kompyuterlar egallab kelmoqdalar. Kompyuterlar davri 1971 yilda AQShda mikroprosessor kashf etilgandan boshlangan desa bo'ladi. Kompyuterlarni ishlab chiqarishda avvaliga asosan IRELS firmasi, keyinchalik (1984y.) esa, IBM firmasi mahsulotlari hisobiga kengayib bordi.

Sinov savollari

1. Informatika fani paydo bo'lishi to'g'risida qanday to'g'risida ma'lumotlarni bilasiz?.
2. Informatika fanining predmeti nima?.
3. Informatikaning asosiy qismlari qaysilari?.
4. Informatika va HT ning rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?
5. Informatika faninin asosiy xususiyatlari?

Uyga vazifa : *Ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish va axborotlarni qayta ichlash doir misollar kelterish va ularni tushuntirib berish.*

Adabiyotlar

[1],[2],[3],[4],[5],[12]

1-ma'ruzaga ilova

AKT ni rivojlantirish buyicha me'yoriy xujjatlar

Hozirgi kunda barcha sohalar kabi o'quv jarayonida ham kompyuter va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, davlatimiz tomo nidan qolaversa hurmatli prezidentimiz I.A. Karimovning sayh hara katlari tufayli ta'lim jarayonini axborotlashtirish va hamda o'quv jarayonida axborot-telekommunikasion texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1)2003 yil 11 dekabrda O'zbekiston respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risidagi» qonuni;

2) O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risidagi» qarori;

3) O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2006 yil 7 iyundagi «O'zbekiston respublikasi XTV huzurida multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi» qarori;

4) 1999 yil 20 avgustda O'zbekiston respublikasining «Telekommunikasiya-lar to'g'risidagi» qonuni;

5) O'zR Prezidentining 28.09.2005 y. PK-191-son Qarori / O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini ("Ziyonet") tashkil yetish to'g'risida

6) O'zR BM 17.12.2007 y. 259-son Qarori/ Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining xukumat portalini yanadarivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.

7) O'zR BM 10.10.2002. y. 259-son Qarori/ Xalqaro kompyuter tarmoqlaridan foydalanishni markazlashtirishdan chiqarish to'g'risida.

8) O'zR BM 07.11.2002 y. 385-son Qarori/ Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini tashkil yetish to'g'risida.

9) O'zR VM 07.06.2006 y. 110-son Qarori/ O'zbekiston Respublikasi XTV huzurida multimedia umumta'lim dasturini rivojlantirish markazini tashkil yetish chora-tadbirlari to'g'risida.

10) O'zR XTV 24.03.2006 y. 69-sonli Buyruq/ Xalq ta'limi tizimida axborotlash -tirish sohasi bo'yicha normative-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida.

11) O'zR XTV 03.08.2006 y. 6/5-XB-sonli Buyruq/ 2006-2007 o'quv yilini "Axborot kommunikasiya texnologiyalaidan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish o'quv yili" deb nomlash to'g'risida.

12) O'zR XTV 13.02.2008 y. 35-sonli Buyruq / Xalq talimi vazirligining axborot-ta'lim portali (WWW. EDUPORTAL.UZ) va uning mazmunini takomillashtirish to'g'risida hokoza buning yaqqol misolidir

Algoritm lash asoslari.

2-ma'ruza

Mavzu: Algoritm tushunchasi, xossalari va berilish usullari. **Algoritm larning turlari:** chiziqli va tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi jarayonlar jarayonlar uchun algoritmlar tuzish.

Reja:

1. Algoritm tushunchasi va uning xossalari.
2. Chiziqli algoritm.
3. Tarmoqlanuvchi algoritmlar.
4. Takrorlanuvchi jarayonlar

Darsning maqsadi:

2. Algoritm va algoritmning berilishi usullari, Algoritm larning turlari: chiziqli va tarmoqlanuvchi jarayonlarni algoritm lash to'g'risida to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish.

Tayanch iboralar: algoritm, xossalari, berilish usullari, turlari, blok-sxema,

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, ma'ruza bo'yicha slaydlar.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar orqali , jonli muloqotli ma'ruza .

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati– 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

Algoritm tushunchasi. Avvalo **algoritm** tushunchasi 1X asrla yashab ijod etgan buyuk bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bog'liqligini tushuntirish lozim. **Algoritm** so'zi al-Xorazmiyning arifmetikaga bag'ishlangan asarining dastlabki betidagi **“Dixit Algoritmi”** (**“dediki al-Xorazmiy”** ning lotincha ifodasi) degan jummalardan kelib chiqqan. Shundan so'ng al-Xorazmiyning sanoq sistemasini takomillashtirishga qo'shgan hissasi, uning asarlari algoritm tushunchasining kiritilishiga sabab bo'lganligi ta'kidlab o'tiladi.

Algoritm nima degan savolga, u asosiy tushuncha sifatida qabul qilinganligidan, uning faqat tavsifi beriladi, ya'ni biror maqsadga erishishga yoki qandaydir masalani yechishga qaratilgan ko'rsatmalarning (buyruqlarning) aniq, tushunarli, chekli hamda to'liq tizimi tushuniladi.

O'quvchilarga turli hayotdan, fandan algoritm'larga misollar keltiriladi va bunga o'zlari tuzishga harakat qilishlari taklif etiladi. Masalan, atom tayyorlash, turli qurilmalarni ishlatish, sport musobaqasi yoki yo'l harakati qoidalarini algoritm'larni keltirish mumkin. yoki matematik formula bo'yicha qiymat hisoblash algoritmi yoki kompyuterni ishlatish bo'yicha algoritm kabi misollar keltiriladi. Geometrik yasashga doir masala yechish algoritmi ham qarab chiqilishi mumkin. **Masalan**, kesma o'rtasiga perpendikulyar o'tkazish berilgan radiusga ko'ra aylana yasash va h.k. Bundan tashqari, birorta funksiya grafigini yasash algoritmi bunga misol bo'la oladi.

Masalan, chiziqli, kvadratik funksiya va h.k. funksiyalar grafiklarini yasash algoritm'lari.

Bunda yana algoritmni bajarayotgan kishi – ijrochi, asosiy algoritmni aniqlashtiruvchi algoritm – **yordamchi algoritm** ekanligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Umuman, algoritmning qanday maqsadga mo'ljallanganligidan qat'i nazar uni muvaffaqiyat bilan bajarish mumkinligini aytib o'tish lozimdir.

Algoritmning asosiy xossalari haqida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1-xossa. Diskretlilik, ya'ni algoritmni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin.

2-xossa. Tushunarlilik, ya'ni ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar uning uchun tushunarli bo'lishi shart, aks holda ijrochi oddiy amalni ham bajara olmay qolishi mumkin. Har bir ijrochining bajara olishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar tizimi mavjud.

3-xossa. Aniqlik, ya'ni ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi lozim hamda faqat algoritmda ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart.

4-xossa. Ommaviylik, ya'ni har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun yaroqli bo'lishi lozim. **Masalan**, ikki oddiy kasr umumiy maxrajini topish algoritmi har qanday kasrlar umumiy maxrajini topish uchun ishlatiladi.

5-xossa. Natijaviylik, ya'ni har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so'ng albatta natija berishi lozim.



Bu xossalr mohiyatini o'rganish va konkret algoritmlar uchun qarab chiqish talabalarining xossalr mazmunini bilib olishlariga yordam beradi.


Algoritmning tasvirlash usullari haqida gapirganda algoritmning berilish usullari xilma-xilligi va ular orasida eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar ekanligini ko'rsatib o'tish joiz:

1. **Algoritmning so'zlar orqali ifodalanishi.**
2. **Algoritmning formulalar yordamida berilishi.**
3. **Algoritmning jadval ko'rinishida berilishi, masalan,** turli matematik jadvallar, loteriya yutuqlari jadvali, funksiyalar qiymatlari jadvallari bunga misol bo'ladi.
4. **Algoritmning dastur shaklida ifodalanishi,** ya'ni algoritm kompyuter ijrochisiga tushunarli bo'lgan dastur shaklida beriladi.
5. **Algoritmning algoritmik tilda tasvirlanishi,** ya'ni algoritm bir xil va aniq ifodalash, bajarish uchun qo'llanadigan belgilash va qoidalar majmui algoritmik til orqali ifodalashdir. Ulardan o'quv o'rganish tili sifatida foydalanilmoqda. Bo'lardan Ye-praktikum yoki Ye-tili algoritm ijrochisi algoritmik tili ham mavjud.
6. **Algoritmning grafik shaklida tasvirlanishi. Masalan,** grafiklar, sxemalar ya'ni blok - sxema bunga misol bo'la oladi. Blok sxemaning asosiy elementlari quyidagilar: **oval (ellips shakli)**-algoritm boshlanishi va tugallanishi, **to'g'ri burchakli to'rtburchak**-qiymat berish yoki tegishli ko'rsatmalarni bajarish. **Romb** - **shart** tekshirishni belgilaydi. Uning yo'naltiruvchilari tarmoqlar bo'yicha biri ha ikkinchisi yo'q yo'nalishlarni beradi, **parallelogramm**- ma'lumotlarni kiritish yoki chiqarish, **yordamchi algoritmgga murojaat** - parallelogramm ikki tomoni chiziqli, **yo'naltiruvchi chiziqli** - blok-sxemadagi harakat boshqaruvi, **nuqta-to'g'ri chiziqli (ikkita parallel)** - qiymat berish.

Algoritmida bajarilishi tugallangan amallar ketma-ketligi **algoritm qadami** deb yuritiladi. Har bir alhoxida qadamni ijro etish uchun bajarilishi kerak bo'lgan amallar haqidagi ko'rsatma buyruq deb aytiladi.

Algoritmni ko'rgazmaliroq qilib tasvirlash uchun blok-sxema, ya'ni geometrik usul ko'proq qo'llaniladi. Algoritmning blok-sxemasi algoritmning asosiy tuzilishining yaqqol geometrik tasviri: algoritm bloklari, ya'ni geometrik shakllar ko'rinishida, bloklar orasidagi aloqa esa yunaltilgan chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Chiziqlarning yunalishi bir blokdan so'ng qaysi blok bajarilishini bildiradi. Algoritmni ushbu usulda ifodalashda vazifasi, tutgan o'rniga qarab quyidagi **geometrik shakl(blok)** lardan foydalaniladi.

Blokning atalishi	Belgilanishi	Tushunilishi
Hisoblashlar bloki (to'g'ri-to'rtburchak)		Hisoblash amali yoki hisoblash amallari ketma-ketligi
shartli blok (romb)		Shartlarni tekshirish
siklik jarayon (oltiburchak)		Siklning boshlanishi
qism dastur		qism dastur bo'yicha hisoblash, standart qism dasturi


birlashtirish (aylana)		Yo'nalish chizig'ini o'zgartirish
Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish (parallelogramm)		Ma'lumotlarni kiritish va natijalarni chiqarish
Algoritmning boshi va oxiri (oval)		Boshlash, tamom, to'xtash
Chiqarish bloki		Ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish

Algoritmlar berilishi va ifodalanishiga qarab: **chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi** turlarga bo'linadi.

Algoritmning turlari bilan tanishtirganda, avvalo hech qanday shart tekshirilmaydigan va tartib bilan faqat ketma-ket bajariladigan jarayonlarni ifodalaydigan **chiziqli algoritmlar** aytib o'tiladi.

Chiziqli algoritmlar


Chiziqli algoritmlar algoritmlarning eng sodda va oddiy ko'rinishi hisoblanadi. Unida bajariladigan amallar ham buyruqlar ham buyruqlar ham qanday tartibda berilgan bo'lsa shunday tartibda ketma- ket bajariladi, ya'ni hech qanday shart tekshirilmasdan chiziqli algoritmlarda buyruqlar ketma- ket tartib bilan bajariladi. Chiziqli algoritmlarni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.



Bu yerda $A_1, \dots, A_N$ lar chiziqli algoritmlarda bajarilishi kerak bo'lgan buyruqlar ketma- ketligidir.


2- misol. $y = 2x^3 + 4x^2 + 3x - 5$ funksiyani x ning ixtiyoriy qiymatlarida xisoblash algoritmini tuzing.

Yechish. Algoritmning blok sxema ko'rinishda ifodalaymiz.





3- misol. $S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$ Geron formulasidan foydalanib uchburchak yuzini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish. Algoritmni blok sxema ko'rinishda ifodalaymiz.




Tarmoqlanuvchi algoritmlar. Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo'ladiki, bunda qo'yilgan ayrim mantiqiy shartlarning bajarilishiga qarab, bu jarayonlar bir nechta tarmoqqa bo'linadi va shu tarmoqlardan hiech bo'lmaganda bittasi bajariladi. Ana shunday jarayonlar uchun algoritmlar tuzishda tarmoqlanuvchi algoritmlardan foydalaniladi. Tarmoqlanuvchi struktura odatda qandaydir mantiqiy shartni tekshirish blokini o'z ichiga oladi. Tekshirish natijasiga ko'ra, tarmoq deb ataluvchi u yoki bu amallar ketma-ketligi bajariladi.

Tarmoqlanuvchi algoritm to'la va qisqartirilgan ko'rinishda berilishi mumkin. Ular quyidagicha sxema orqali ifodalanadi:




1-misol. Ixtiyoriy berilgan x va u sonlaridan eng kattasini topish algoritmini tuzing.



2- misol. $\begin{cases} 1+2x, & \text{agar } x < 0 \\ 2+x, & \text{agar } x = 0 \\ x+1, & \text{agar } x > 0 \end{cases}$ [C:\Exit \(C:\)](#) ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

tuzing.

Yechish.




Takrorlanuvchi algoritmlar.

Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo'ladiki, bunda uning ayrim bo'laklarini bir necha marta takroran hisoblashga to'g'ri keladi. Bunday jarayonlar uchun algoritmlar tuzishda takrorlanuvchi algoritmlardan foydalaniladi.

Hisoblash jarayonining ko'p marta takrorlanadigan qismi ichki **sikl tanasi (jismi)** deb yuritiladi. Takrorlanuvchi algoritmlar 2 xil ko'rinishga ega bo'ladi:


Sikl - gacha takrorlanuvchi algoritmlar quyidagi ko'rinishga ega:



a) sikl - gacha ;

Bu ko'rinishdagi algoritmda avval sikl tanasi bajarilib, so'ngra sikldan chiqish sharti tekshiriladi, ya'ni sikl tanasi qo'yilgan shart bajarilib turguncha takrorlanaveradi.

Sikl - hozircha takrorlanuvchi algoritm quyidagi ko'rinishga ega:




b) sikl - hozircha.


Bu ko'rinishdagi algoritmlarda avval shart tekshiriladi, so'ngra agar shart qanoatlantirsa, sikl tanasi bajariladi, aks holda hisoblash to'xtatiladi.

0 - misol. 0 dan 20 gacha juft sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish. a) sikl - gacha




b) sikl – hozircha




2-misol. $y = \sqrt{x^3 + x^2 + x}$ funksiyani x ning $[a,b]$ oraliqda $h=0.1$ qadam bilan o'zgarish qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish.

1) Sikl-gacha



2) Sikl - hozircha



Sinov savollari:

1. Masalani kompyuterda yechishning asosiy bosqichlarini ayting?
2. Algoritm nima?
3. Algoritmga misollar keltiring.
4. Algoritmning asosiy xossalari.
5. Algoritmning tasvirlashning asosiy usullari.
6. Bu tasvirlash usullarining har biriga misollar keltiring.
7. Blok-sxema nima? Asosiy elementlarini ayting.
8. Algoritmning turlari.
9. Ijrochining ko'rsatmalar majmui nimalardan iborat?
10. Chiziqli algortitm nima?
11. Tarmoqlanuvchi algoritmlarning xususiyatlari qanday?
12. Chiziqli va tarmoqlanuvchi algoritmgga misollar keltiring.

Uyga vazifa

1. Ko'paytirish jadvali elementlarini hosil qilish algoritmini tuzing.
2. $S = \sum_{n=1}^5 \prod_{i=1}^8 (n^2 + i^3)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.

3-ma'ruza

Mavzu: Programmalash tillari haqida umumiy ma'lumotlar. C ++
Programmalash tili va muhiti. C++ Programmalash tili to'g'risida umumiy
ma'lumotlar. C++ tilining alfaviti va asosiy elementlari.

Reja:

1. Programmalash tillari va ular to'g'risida umumiy ma'lumotlar.
2. C++ tili va uning leksik asoslari, dastur tuzilishi va uning kompilyatsiyasi.
3. C++ tili alfaviti, leksimalar, identifikatorlar va kalit so'zlar.

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda Programmalash, uning turlari to'g'risida umumiy va asosiy bilimlar-ni hosil qilish.
2. C++ tizimi va uning umumiy tuzilishi to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish.
3. C++ tizimida mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: *Programmalash tili, dastur, translyator, alfaviti, leksimalar, identifikatorlar va kalit so'zlar.*

Dars o'tish vositalari: *sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnla-ri, kompyuter, ma'ruza bo'yicha slydlar, C++ tizimi .*

Dars o'tish usuli: *namoyish dasturiy vositalar orqali , jonli muloqotli ma'ruza .*

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: *xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarining davomati– 2 minut.*

Talabalar bilimni baholash: *o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bi-lan savol javob o'tkazish - 10 minut.*

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

Biz axborot, kod, kompyuter, blok- sxema, algoritm, ijrochi va boshqa tushunchalarni o'rgandik. Bo'lar masalani kompyuterda hal qilishda kerak bo'ladigan tushunchalarni o'rgandik. Bo'lar masalani kompyuterda hal qilishda kerak bo'ladigan tushunchalardir. Ammo kompyuter bilan muloqot qilish uchun, bo'lardan tashqari, kompyuter "tilini" ham bilishimiz talab qilinadi. Biror masalani kompyuterda hal qilish uchun, avval, uning algoritmini tuzishimiz, so'ng bu algo-ritmni kompyuter tushunadigan ko'rsatmalar va qonun qoidalar asosida yozishimiz lozim bo'ladi. Bu yozuv dastur deb ataladi.

Shunday qilib, dastur biror masalani yechishda kompyuter bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalarning izchil tartibidan iborat ekan. Kompyuter uchun dastur tu-zish jarayoni Programmalash va dastur tuzadigan kishi dasturchi deb ataladi. Kompyuter tushunadigan "til" Programmalash tili deb ataladi. (Eslang: algoritm ijrochisining ko'rsatmalar tizimi. Bu yerda kompyuter ijrochi sifatida qat-nashmoqda.)

Hozircha yaratilgan Programmalash tillarini, ulardagi ko'rsatmalar, qonun qoida-larga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

- 1. Quyi darajadagi.**
- 2. O'rta darajadagi.**
- 3. Yuqori darajadagi.**

Quyi darajadagi Programmalash tillari da ko'rsatmalar raqamlar yordamida beriladi. Barcha amallar ma'lum raqamlar bilan ifodalangan bo'lib, ular mashina qurilmalari adreslar bilan bevosita ishlashga mo'ljallangan. Bu tilda dastur tuzuvchi amallarning sonli ifodasi va adreslarni puxta bilishi kerak .

O'rta darajadagi Programmalash tillarida ko'rsatmalar sifatida inson tiliga yaqin bo'lgan, ammo qisqartirilgan holda ishlatiladigan so'zlar tanlanadi. Bunda ham dasturchi adreslar bilan ishlashi lozim. Qisqartirilgan ko'rsatmalar mnemo-kodlar, bu turdagi Programmalash tillari esa assemblerlar deb ataladi.

Yuqori darajadagi Programmalash tillaridagi ko'rsatmalar inson tiliga yaqin bo'lgan so'zlardan iborat. Ularda amallarni bajarish avvalgilardan oson bo'lib, dasturchi, biror maxsus amal bo'lmasa, adreslar, qurilmalar bilan bevosita bog'liq ko'rsatmalarni bilmasligi ham mumkin.

Kompyuter amallarni bajarish uchun ularni raqamli ko'rinishga keltirish kerak bo'ladi. Bu vazifani translyatorlar deb nomlanadigan maxsus dasturlar bajaradi. Translyatorlar Programmalashtilida yozilgan dasturlarni mashina tiliga tarjima qiladi. Ular 2 xil bo'ladi: interpretator va kompilyator.

Keyingi yillarda juda ko'p yuqori darajadagi Programmalash tillari yaratilganligi sizlarga ma'lum. Ular qatoriga Paskal, Simula, dBasse, KARAT, Si va boshqa tillarni kiritish mumkin. Programmalash tillarining ko'payib borayotganligiga qaramay, har bir Programmalash tilining o'z maqsadi, vazifasi va qo'llanish sohalari bor. Masalan, hisoblashga bog'liq masalalarni yechish uchun Paskal, Fortran, belgili ma'lumot va ro'yxatlarni qayta ishlash uchun LISP, matnli ma'lumotlar bilan ishlash uchun SI, muloqot uchun Beysik Paskal, iqtisodiy masalalarni yechish uchun dBasse, Kabol va ro'yxatlarni qayta ishlash uchun Programmalash tillaridan foydalaniladi.

C++ Programmalash tili C tiliga asoslangan. C esa o'z navbatida B va BCPL tillaridan kelib chiqqan. BCPL 1967 yilda Martin Richards tomonidan tuzilgan va operatsion sistemalarni yozish uchun mo'ljallangan edi. Ken Thompson o'zining B tilida BCPL ning ko'p hossalarni kiritgan va B da UNIX operatsion sistemasining birinchi versiyalarini yozgan. BCPL ham, B ham tipsiz til bo'lgan. Yani o'zgaruvchilarning ma'lum bir tipi bo'lmagan - har bir o'zgaruvchi kompyuter hotirasida faqat bir bayt yer egallagan. O'zgaruvchini qanday sifatda ishlatish esa, yani butun sonmi, kasrli sonmi yoki harfdekmi, dasturchi vazifasi bo'lgan.

C tilini Dennis Ritchie B dan keltirib chiqardi va uni 1972 yili ilk bor Bell Laboratoriyasida, DEC PDP-11 kompyuterida qo'lladi. C o'zidan oldingi B va BCPL tillarining juda ko'p muhim tomonlarini o'z ichiga olish bilan bir qatorda o'zgaruvchilarni tiplashtirdi va bir qator boshqa yangiliklarni kiritdi. Boshlanishda C asosan UNIX sistemalarida keng tarqaldi. Hozirda operatsion sistemalarning asosiy qismi C/C++ da yozilmoqda. C mashina arhitekturasiga bog'langan tildir. Lekin yahshi rejalashtirish orqali dasturlarni turli kompyuter platformalarida ishlaydigan qilsa bo'ladi.

1983 yilda, C tili keng tarqalganligi sababli, uni standartlash harakati boshlandi. Buning uchun Amerika Milliy Standartlar Komiteti (ANSI) qoshida X3J11 texnik komitet tuzildi. Va 1989 yilda ushbu standart qabul qilindi. Standartni dunyo bo'yicha keng tarqatish maqsadida 1990 yilda ANSI va Dunyo Standartlar Tashkiloti (ISO) hamkorlikda C ning ANSI/ISO 9899:1990 standartini qabul qilishdi. Shu sababli C da yozilgan dasturlar kam miqdordagi o'zgarishlar yoki umuman o'zgarishlarsiz juda ko'p kompyuter platformalarida ishlaydi.

C++ 1980 yillar boshida Bjarne Stroustrup tomonidan C ga asoslangan tarzda tuzildi. C++ juda ko'p qo'shimchalarni o'z ichiga olgan, lekin eng asosiysi u ob'ektlar bilan Programmalashga imkon beradi.

Dasturlarni tez va sifatli yozish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoda. Buni ta'minlash uchun ob'ektli Programmalash g'oyasi ilgari surildi. Huddi 70-chi yillar boshida strukturali Programmalash kabi, programmalarni hayotdagi jismlarni modellashtiruvchi ob'ektlar orqali tuzish Programmalash sohasida inqilob qildi.

C++ dan tashqari boshqa ko'p ob'ektli dasturlarga yo'naltirilgan tillar paydo bo'ldi. Shulardan eng ko'zga tashlanadigani Xerox ning Palo Alto da joylashgan ilmiy-qidiruv markazida (PARC) tuzilgan Smalltalk Programmalash tilidir. Smalltalk da hamma narsa ob'ektlarga asoslangan. C++ esa gibril tilidir. Unda C ga o'hshab strukturali Programmalash yoki yangicha, ob'ektlar bilan Programmalash mumkin. Yangicha deyishimiz ham nisbiydir. Ob'ektli Programmalash falsafasi paydo bo'lganiga ham yigirma yildan oshayapti.

C++ funksiya va ob'ektlarning juda boy kutubhonasiga ega. Yani C++ da Programmalashni o'rganish ikki qismga bo'linadi. Birinchisi bu C++ ni o'zini o'rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubhonasidagi tayyor ob'ekt/funksiyalarni qo'llashni o'rganishdir.

1. Alfavit, identifikator, xizmatchi so'zlar.

Alfavit. C++ alfavitiga quyidagi belgilar kiradi.

- Katta va kichik lotin alfaviti xarflari (A,B,...,Z,a,b,...,z)
- Raqamlar: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9
- Maxsus belgilar: “ , { } | [] () + - / % \ ; ‘ . : ? < = > _ ! & * # ~ ^
- Ko'rinmaydigan belgilar (“umumlashgan bushliq belgilari”). Leksemalarni uzaro ajratish uchun ishlatiladigan belgilar (misol uchun bushlik, tabulyatsiya, yangi qatorga o'tish belgilari).

Izohlarda, satrlarda va belgili konstantalarda boshqa literalalar, masalan rus xarflarini ishlatilishi mumkin.

C++ tilida olti xil turdagi leksemalar ishlatiladi: ehtimol tanlanadigan va ishlatiladigan identifikatorlar, xizmatchi so'zlar, konstantalar(konstanta satrlar), amallar(amallar belgilari), azhratuvchi belgilar.

Identifikator. Identifikatorlar lotin xarflari, ostki chiziq belgisi va sonlar ketma ketligidan iborat bo'ladi. Identifikator lotin xarfidan yoki ostki chiziq belgisidan boshlanishi lozim. **Misol uchun:** *A1, _MAX, adress_01, RIM, rim*

Katta va kichik xarflar farqlanadi, shuning uchun ohirgi ikki identifikator bir biridan farq qiladi.

Borland kompilyatorlaridan foydalanilganda nomning birinchi 32 xarfi ,ba'zi kompilyatorlarda 8 ta xarfi inobatga olinadi. Bu holda NUMBER_OF_TEST va NUMBER_OF_ROOM identifikatorlari bir biridan farq qilmaydi.

Xizmatchi so'zlar. Tilda ishlatiluvchi ya'ni dasturchi tomonidan uzgaruvchilar nomlari sifatida ishlatish mumkin bulmagan identifikatorlar xizmatchi so'zlar deyiladi. C ++ tilida quyidagi xizmatchi so'zlar mavjud:

<i>int</i>	<i>extern</i>	<i>else</i>
<i>char</i>	<i>register</i>	<i>for</i>
<i>float</i>	<i>typedef</i>	<i>do</i>
<i>double</i>	<i>static</i>	<i>while</i>
<i>struct</i>	<i>goto</i>	<i>switch</i>
<i>union</i>	<i>return</i>	<i>case</i>
<i>long</i>	<i>sizeof</i>	<i>default</i>
<i>short</i>	<i>break</i>	<i>entry</i>
<i>unsigned</i>	<i>continue</i>	
<i>auto</i>	<i>if</i>	

O'zgaruvchilar ob'ekt sifatida. Ci++ tilining asosiy tushunchalaridan biri nomlangan hotira qismi – ob'ekt tushunchasidir. Ob'ektning xususiy holi bu o'zgaruvchidir. O'zgaruvchiga qiymat berilganda unga ajratilgan hotira qismiga shu qiymat kodi yoziladi. O'zgaruvchi qiymatiga nomi orqali murojaat qilish mumkin, hotira qismiga esa faqat adresi orqali murojaat qilinadi. O'zgaruvchi nomi bu erkin kiritiladigan identifikatordor. O'zgaruvchi nomi sifatida xizmatchi so'zlarni ishlatish mumkin emas.

O'zgaruvchilar tiplari. O'zgaruvchilarning qo'yidagi tiplari mavjuddir:

char – bitta belgi;

long char – uzun belgi;

int – butun son;

short yoki **short int** – qisqa butun son;

long yoki **long int** – uzun butun son;

float - haqiqiy son;

long float yoki **double** – ikkilangan haqiqiy son;

long double – uzun ikkilangan haqiqiy son;

Butun sonlar ta'riflanganda ko'rilgan tiplar oldiga unsigned (ishorasiz) ta'rifi kushilishi mumkin. Bu ta'rif qushilgan butun sonlar ustida amallar mod 2n arifmetikasiga asoslangandir . Bu erda n soni int tipi hotirada egallovchi razryadlar sonidir. Agar ishorasiz k soni uzunligi int soni razryadlar sonidan uzun bulsa, bu son qiyjmati k mod 2n ga teng bo'ladi. Ishorasiz k son uchun ga –k amali 2n – k formula asosida hisoblanadi. Ishorali ya'ni signed tipidagi sonlarning eng katta razryadi son ishorasini ko'rsatish uchun ishlatilsa unsigned (ishorasiz) tipdagi sonlarda bu razryad sonni tasvirlash uchun ishlatiladi.

O'zgaruvchilarni dasturning ihtiyoriy qismida ta'riflash yoki qayta ta'riflash mumkin. Misol uchun:

Int a, b1, ac; eki

Int a;

int b1;

int ac;

O'zgaruvchilar ta'riflanganda ularning qiymatlari aniqlanmagan bo'ladi. Lekin o'zgaruvchilarni ta'riflashda initsializatsiya ya'ni boshlang'ich qiymatlarini ko'rsatish mumkin. Misol uchun:

Int I=0;

Char c='k';

Typedef ta'riflovchisi yangi tiplarni kiritishga imkon beradi.
Misol uchun yangi COD tipini kiritish:

Typedef unsigned char COD;

COD simbol;

Konstantalar. (constants)

Konstanta bu o'zgartirish mumkin bulmagan qiymatdir. C++ tilida besh turdagi konstantalar ishlatilishi mumkin: butun sonlar, haqiqiy sonlar, belgilar, sanovchi konstantalar va nul ko'rsatkich.

Sinov savollari:

1. C++ tizimining umumiy tuzilishi qanday?
2. Menuning tarkibiy qismlari qaysi?
3. C++ tilining tarkibiy qismlari qanday?
4. Identifikatorni tushuntiring?

Uyga vazifa : C++ tizimida ishlash qoidalarini mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

4-ma'ruza

Mavzu: C++ tilida amallar. Arifmetik amallar, qiymat berish operatori. Inkriment va dekriment amallar. Mantiqiy amallar, taqqoslash amallar..

Reja:

1. Arifmetik amallar, qiymat berish operatori.
2. Ifoda.
3. Inkriment va dekriment amallar

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda arifmetik amallar to'g'risida umumiy bilimlarni hosil qilish.
2. C++ tizimida ifodalar to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish.

Tayanch iboralar: amal, arifmetik amal, ifoda, inkrement va dekriment amallar.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, ma'ruza bo'yicha slaydlar, C++ tizimi .

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar orqali , jonli muloqotli ma'ruza .

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati– 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

C++ da arifmetik amallar

Ko'p programmalar ijro davomida arifmetik amallarni bajaradi. C++ dagi amallar quyidagi jadvalda berilgan. Ular ikkita operand bilan ishlatildi.

C++ dagi amal Arifmetik operator Algebraik ifoda C++ dagi ifodasi:

Qo'shish	+	$h+19$	$h+19$
Ayirish	-	$f-u$	$f-u$
Ko'paytirish	*	sl	$s*l$
Bo'lish	/	$v/d,$	v/d
Modul olish	%	$k \bmod 4$	$k\%4$

Bo'larning ba'zi birlarinig xususiyatlarini ko'rib chiqaylik. Butun sonli bo'lishda, yani bo'luvchi ham, bo'linuvchi ham butun son bo'lganda, javob butun son bo'ladi. Javob yahlitlanmaydi, kasr qismi tashlanib yuborilib, butun qismining o'zi qoladi.

Modul operatori (%) butun songa bo'lishdan kelib chiqadigan qoldiqni beradi. $x\%y$ ifodasi x ni y ga bo'lgandan keyin chiqadigan qoldiqni beradi. Demak, $7\%4$ bizga 3 javobini beradi. % operatori faqat butun sonlar bilan ishlaydi. Vergulli (real) sonlar bilan ishlash uchun "math.h" kutubhonasidagi fmod funksiyasini qo'llash kerak.

C++ da qavslarning ma'nosi huddi algebradagidekdir. Undan tashqari boshqa boshqa algebraik ifodalarning ketma-ketligi ham odatdagidek. Oldin ko'paytirish, bo'lish va modul olish operatorlari ijro ko'radi. Agar bir necha operator ketma-ket kelsa, ular chapdan o'nga qarab ishlanadi. Bu operatorlardan keyin esa qo'shish va ayirish ijro etiladi.

Misol keltiraylik. $k = m * 5 + 7 \% n / (9 + x);$

Birinchi bo'lib $m * 5$ hisoblanadi. Keyin $7 \% n$ topiladi va qoldiq $(9 + x)$ ga bo'linadi. Chiqqan javob esa $m * 5$ ning javobiga qo'shiladi. Qisqasini aytsak, amallar matematikadagi kabi. Lekin biz o'qishni osonlashtirish uchun va hato qilish ehtimolini kamaytirish maqsadida qavslarni kengroq ishlatishimiz mumkin. Yuqoridagi misolimiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$k = (m * 5) + ((7 \% n) / (9 + x));$$

Amallar jadvali

Arifmetik amallar	Razryadli amallar	Nisbat amallari	Mantiqiy amallar
+ qo'shish	& va	= = teng	&& va
- bo'lish	yoki	!= teng emas	yoki
* ko'paytirish	^ inkor	> katta	! inkor
/ bo'lish	<< chapga surish	>= katta yoki teng	

% modul olish	>> o'ngga surish	< kichik	
- unar minus	~ inkor	<= kichik yoki teng	
+ unar plyus			
++ oshirish			
-- ka-maytirish			

Amallar jadvali (davomi)

Imlo amallar	Qiymat berish va shartli amallar	Tipli amallar	Adresli amallar
() – doirali qavs	= - oddiy qiymat berish	(tip) – tipni o'zgartirish	& - adresni aniqlash
[] – kavadrat qavs	op= - murakkab qiymat berish	sizeof- hajmni hisoblash	* - adres bo'yicha qiymat aniqlash yoki joylash
, - vergul	? – shartli amal		

Arifmetik amallar. Amallar odatda unar ya'ni bitta operandga qo'llaniladigan amallarga va binar ya'ni ikki operandga qo'llaniladigan amallarga ajratiladi.

Binar amallar additiv ya'ni + qo'shuv va – ayirish amallariga, hamda multiplikativ ya'ni * kupaytirish, / bulish va % modul olish amallariga ajratiladi. Additiv amallarining ustivorligi multiplikativ amallarining ustivorligidan pastroqdir.

Butun sonni butun songa bo'lganda natija butun songacha yahlitlanadi. Misol uchun $20/3=6$; $(-20)/3=-6$; $20/(-3)=-6$.

Modul amali butun sonni butun songa bulishdan hosil bo'ladigan qoldikka tengdir. Agar modul amali musbat operandlarga qo'llanilsa, natija ham musbat bo'ladi, aks holda natija ishorasi kompilyatorga bog'likdir.

Binar arifmetik amallar bajarilganda tiplarni keltirish quyidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi:

short va char tiplari int tipiga keltiriladi;

Agar operandlar biri long tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham long tipiga keltiriladi va natija ham long tipiga tegishli bo'ladi;

Agar operandlar biri float tipiga tegishli bulsa ikkinchi operand ham float tipiga keltiriladi va natija ham float tipiga tegishli bo'ladi;

Agar operandlar biri double tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham double tipiga keltiriladi va natija ham double tipiga tegishli bo'ladi;

Agar operandlar biri long double tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham long double tipiga keltiriladi va natija ham long double tipiga tegishli bo'ladi;

Unar amallarga ishorani o'zgartiruvchi unar minus – va unar + amallari kiradi. Bundan tashqari ++ va -- amallari ham unar amallarga kiradi.

++ unar amali qiymatni 1 ga oshirishni ko'rsatadi. Amalni prefiks ya'ni ++i ko'rinishda ishlatish oldin o'zgaruvchi qiymatini oshirib so'ngra foydalanish lozimligini, postfiks ya'ni i++ ko'rinishda ishlatish oldin o'zgaruvchi qiymatidan foydalanib so'ngra oshirish kerakligini ko'rsatadi. Misol uchun i qiymati 2 ga teng bo'lsin, u holda $3+(++i)$ ifoda qiymati 6 ga, $3+i++$ ifoda qiymati 5 ga teng bo'ladi.

Ikkala holda ham i qiymati 3 ga teng bo'ladi.

-- unar amali qiymatni 1 ga kamaytirishni ko'rsatadi. Bu amal ham prefiks va postfiks ko'rinishda ishlatilishi mumkin. Bu ikki amalni faqat o'zgaruvchilarga qo'llash mumkindir.

Unar amallarning ustivorligi binar amallardan yuqoridir.

Razryadli amallar. Razryadli amallar natijasi butun sonlarni ikkilik ko'rinishlarining har bir razryadiga mos mantiqiy amallarni qo'llashdan hosil bo'ladi. Masalan 5 kodi 101 ga teng va 6 kodi 110 ga teng.

$6 \& 5$ qiymati 4 ga ya'ni 100 ga teng.

$6 | 5$ qiymati 7 ga ya'ni 111 ga teng.

$6 \wedge 5$ qiymati 3 ga ya'ni 011 ga teng.

~ 6 qiymati 4 ga ya'ni 010 ga teng.

Bu misollarda amallar ustivorligi oshib borishi tartibida berilgandir.

Bu amallardan tashqari $M < N$ chapga razryadli siljitish va $M > N$ ungga razryadli siljitish amallari qo'llaniladi. Siljitish M butun sonning razryadli ko'rinishiga

qo'llaniladi. N nechta pozitsiyaga siljitish kerakligini ko'rsatadi.

Chapga N pozitsiyaga surish bu operand qiymatini ikkinin N chi daraasiga kupyatirishga mos keladi. Misol uchun $5 < 2 = 20$. Bu amalning bitli ko'rinishi:

$101 < 2 = 10100$.

Agar operand musbat bulsa N poziciyaga ungga surish chap operandni ikkinin N chi darajasiga bo'lib kasr qismini tashlab yuborishga mosdir. Misol uchun $5 > 2 = 1$. Bu amalning bitli ko'rinishi $101 > 2 = 001 = 1$. Agarda operand qiymati manfiy bulsa ikki variant mavjuddir: arifmetik siljitishda bushatilayotgan razryadlar ishora razryadi qiymati bilan to'ldiriladi, mantiqiy siljitishda bushatilayotgan razryadlar nullar bilan tuldiriladi.

Razryadli surish amallarining ustivorligi o'zaro teng, razryadli inkor amalidan past, qolgan razryadli amallardan yuqoridir. Razryadli inkor amali unar qolgan amallar binar amallarga kiradi.

Nisbat amallari. Nisbat amallari qiymatlari 1 ga teng agar nisbat bajarilsa va aksincha 0 ga tengdir. Nisbat amallari arifmetik tipdagi operandlarga yoki ko'rsatkichlarga qo'llaniladi.

Misollar:

$1 != 0$ qiymati 1 ga teng;

$1 == 0$ qiymati 0 ga teng;

$3 > 3$ qiymati 1 ga teng;

$3 > 3$ qiymati 0 ga teng;

$2 <= 2$ qiymati 1 ga teng;

$2 < 2$ qiymati 0 ga teng;

Katta >, kichik <, katta eki teng >=, kichik eki teng <= amallarining ustivorligi bir hildir.

Teng == va teng emas != amallarining ustivorligi uzaro teng va qolgan amallardan pastdir.

Funksiya	Aniqlanishi	Misol
ceil(x)	x ni x dan katta yoki unga teng b-n eng kichik butun songacha yahlitlaydi	ceil(12.6) = 13.0 ceil(-2.4) = -2.0
cos(x)	x ning trigonometrik kosinusi (x radianda)	cos(0.0) = 1.0
exp(x)	e ning x chi darajasi (eskponetsial f-ya)	exp(1.0) = 2.71828 exp(2.0) = 7.38906
fabs(x)	x ning absolut qiymati	x>0 => abs(x) = x x=0 => abs(x) = 0.0 x<0 => abs(x) = -x
floor(x)	x ni x dan kichik bo'lgan eng katta butun songacha yahlitlaydi	floor(4.8) = 4.0 floor(-15.9) = -16.0
fmod(x,y)	x/y ning qoldig'ini kasr son tipida beradi	fmod(7.3,1.7) = 0.5
log(x)	x ning natural lagorifmi (e asosiga ko'ra)	log(2.718282) = 1.0
log10(x)	x ning 10 asosiga ko'ra lagorifmi	log10(1000.0) = 3.0
pow(x,y)	x ning y chi darajasini beradi	pow(3,4) = 81.0 pow(16,0.25) = 2
sin(x)	x ning trigonometrik sinusi (x radianda)	sin(0.0) = 0.0
sqrt(x)	x ning kvadrat ildizi	sqrt(625.0) = 25.0
tan(x)	x ning trigonometrik tangensi (x radianda)	tan(0.0) = 0

Qiymat berish operatorlari

Bu qismda keyingi bo'limlarda kerak bo'ladigan tushuncha-larni berib o'tamiz.C++ da hisoblashni va undan keyin javobni o'zgaruvchiga beruvchi bir necha operator mavjuddir. Misol uchun:

```
k = k * 4; ni
k *= 4;
```

deb yozsak bo'ladi.

Bunda *= operatorining chap argumenti o'ng argumentga qo'shiladi va javob chap argumentda saqlanadi. Biz har bir operatorni ushbu qisqartirilgan ko'rinishda yoza olamiz (+=, -=, /=, *= %=). Ikkala qism birga yoziladi. Qisqartirilgan operatorlar tezroq yoziladi, tezroq kompilyatsiya qilinadi va ba'zi bir hollarda tezroq ishlaydigan mashina kodi tuziladi.

1 ga oshirish va kamaytirish operatorlari (increment and decrement) C++ da bir argument oluvchi **inkrenet** (++) va **dekrement** (--) operatorlari mavjuddir. Bo'lar ikki ko'rinishda ishlatiladi, biri o'zgaruvchidan oldin (**++f** - **preinkrement**, **--d** - **predekrement**), boshqasi o'zgaruvchidan keyin (**s++** - **postinkrement**, **s--** - **postdekrement**) ishlatilgan holi. Bo'larning bir-biridan farqini aydin o'taylik. Postinkrementda o'zgaruvchining qiymati ushbu o'zgaruvchi qatnashgan ifodada shlatiladi va undan keyin qiymati birga oshiriladi. Preinkrementda esa o'zgaruvchining qiymati birga oshiriladi, va bu yangi qiymat ifodada qo'llaniladi. Predekrement va postdekrement ham aynan shunday ishlaydi

lekin qiymat birga kamaytiriladi. Bu operatorlar faqatgina o'zgaruvchining qiymatini birga oshirish/kamaytirish uchun ham ishlatilinishi mumkin, yani boshqa ifoda ichida qo'llanilmasdan. Bu holda pre va post formalarining farqi yo'q.

Masalan:

```
++r;  
r++;
```

Yuqoridagilarning funksional jihatdan hech qanday farqi yo'q, chunki bu ikki operator faqat r ning qiymatini oshirish uchun qo'llanilmoqda. Bu operatorlarni oddiy holda yozsak:

```
r = r + 1;  
d = d - 1;
```

Lekin bizning inkrement/dekrement operatorlarimiz oddiygina qilib o'zgaruvchiga bir qo'shish/ayirishdan ko'ra tezroq ishlaydi. Yuqoridagi operatorlarni qo'llagan holda bir dastur yozaylik.

//Postinkrement, preinkrement va qisqartirilgan teglashtirish operatrlari

```
#include <iostream.h>  
int main()  
{  
    int k = 5, l = 3, m = 8;  
    cout << k++ << endl; //ekranga 5 yozildi, k = 6 bo'ldi.  
    l += 4; // l = 7 bo'ldi.  
    cout << --m << endl; // m = 7 bo'ldi va ekranga 7 chiqdi.  
    m = k + (++l); // m = 6 + 8 = 14;  
    return (0);  
}
```

Dasturdagi o'zgaruvchilar e'lon qilindi va boshqangich qiymatlarni olishdi. cout << k++ << endl; ifodasida ekranga oldin k ning boshlangich qiymati chiqarildi, keyin esa uning qiymati 1 da oshirildi. l += 4; da l ning qiymatiga 4 soni qo'shildi va yangi qiymat l da saqlandi. cout << --m << endl; ifodasida m ning qiymati oldin predekrement qilindi, va undan so'ng ekranga chiqarildi. m = k + (++l); da oldin l ning qiymati birga ishirlidi va l ning yangi qiymati k ga qo'shildi. m esa bu yangi qiymatni oldi. Oshirish va kamaytirish operatorlari va ularning argumentlari orasida bo'shliq qoldirilmasligi kerak. Bu operatorlar sodda ko'rinishdagi o'zgaruvchi-larga nisbatan qo'llanilishi mumkin halos. Masalan:

```
++(f * 5);
```

ko'rinish noto'g'ridir.

Mantiqiy amallar. C ++ tilida mantiqiy tip yukdir. Shuning uchun mantiqiy amallarni butun sonlarga qo'llanadi. Bu amallarning natijalari qo'yidagicha aniqlanadi:

x||y amali 1 ga teng agar x>0 eki y>0 bo'lsa, aksincha 0 ga teng
x&& y amali 1 ga teng agar x>0 va y>0 bo'lsa, aksincha 0 ga teng
!x amali 1 ga teng agar x>0 bulsa, aksincha 0 ga teng

Bu misollarda amallar ustivorligi oshib borish tartibida berilgandir.

Inkor ! amali unar kolganlari binar amallardir.

Bu amallardan tashqari quyidagi amallar ham mavjuddir:

Qiymat berish amali. Qiymat berish amali = binar amal bo'lib chap operandi odatda o'zgaruvchi ung operandi odatda ifodaga teng bo'ladi. Misol uchun $Z=4.7+3.34$

Bu qiymati 8.04 ga teng ifodadir. Bu qiymat Z o'zgaruvchiga ham beriladi. Bu ifoda ohiriga nuqta vergul ; belgisi quyilganda operatorga aylanadi.

$$Z=4.7+3.34$$

Bitta ifodada bir necha qiymat berish amallari qo'llanilishi mumkin. Misol uchun:

$$C=y=f=4.2+2.8;$$

Bundan tashqari C ++ tili da murakkab qiymat berish amali mavjud bo'lib, umumiy ko'rinishi quyidagichadir:

O'zgaruvchi_nomi amal= ifoda;

Bu erda amal quyidagi amallardan biri *,/,%,+,-, &,&,^,|, <<,>>.

Misol uchun:

$X+=4$ ifoda $x=x+4$ ifodaga ekvivalentdir;

$X*=a$ ifoda $x=x*a$ ifodaga ekvivalentdir;

$X/=a+b$ ifoda $x=x/(a+b)$ ifodaga ekvivalentdir;

$X>>=4$ ifoda $x=x>>4$ ifodaga ekvivalentdir;

Sinov uchun savollar:

1. Qanday arifmetik amallarni bilasiz?
2. Qiymat berish amali qanday?
3. Ifoda qanday tuzilgan?
4. Inkrement va dekriment amallarini izoxlab bering?

Uyga vazifa : C++ tizimida arifmetik amallarni mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

5-ma'ruza

Mavzu: C++ tilida standart funksiyalar va arifmetik ifodalar.

Reja:

1. C++ tilida standart funksiyalar.

2. Arifmetik ifodalar.

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda standart funksiyalar to'g'risida umumiy bilimlarni hosil qilish.
2. C++ muhitida arifmetik ifodalarni yozish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.
3. C++ tizimida mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: standart funksiyalar, nostandart funksiyalar, arifmetik ifodalar.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, ma'ruza bo'yicha slaydlar, C++ tizimi .

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar orqali , jonli muloqotli ma'ruza .

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati– 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

C++ tilida standart funksiyalar.

C++ tilida **math.h** matematik funksiyalar kutubxonasiga tegishli quyidagi funksiyalar mavjud:

<i>C++ tilida matematik funksiyalar</i>			
Funksiya	Belgilash	Funksiya	Belgilash
absolyut qiymat	<i>fabs(x)</i>	darajaga ko'tarish x^n	<i>pow(x,n)</i>
argtangens	<i>atan(x)</i>	qoldiqni hisoblash	<i>fmod(x,y)</i>
kosinus	<i>cos(x)</i>	x dan kichik bo'lmagan butun son	<i>ceil(x)</i>
sinus	<i>sin(x)</i>	x dan katta bo'lmagan butun son	<i>floor(x)</i>
natural logarifm	<i>ln(x)</i>	arcsinus	<i>asin(x)</i>
kvadrat ildiz	<i>sqrt(x)</i>	arccos	<i>acos(x)</i>
eksponenta	<i>exp(x)</i>	<i>o'nli logarifm</i>	<i>log10(x)</i>

Masalan : $ceil(4.8) = 5$, $floor(4.8) = 4$, $pow(2,5) = 32$, $fmod(5,3) = 2$.

Trigonometrik funksiyalarning qiymatlari radian o'lcho birligida hisoblanadi. **Masalan:** $\sin(1.2) = 0.932039$, $\cos(1.2) = 0.362358$, $\tan(1.2) = 2.57215$.

Agar trigonometrik funksiyalarni qiymatlarin graduslarda hisoblash kerak bo'lsa, ular radianga aylantiriladi yoki π orqali ifodalani. **Masalan:** $\sin 60^\circ = \sin(\pi/3) = \sin(\pi \cdot 60/180) = 0.86576$.

3.2. C++ tilida ifodalar.

C++ tilida ifodalar o'zgarmlardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'lib, ostki va uctki indeksiz bir satrga yoziladi.

C++ tilida Programmalash tilida arifmetik, mantiqiy va satrli ifodalar ishlatiladi.

Arifmetik ifoda. C++ tilida arifmetik ifodalar o'zgarmlardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'ladi. Ifodalarda qatnashayotgan o'zgarmlar, o'zgaruvchilar va funksiyalar dasturda

e'lon qilingan bo'lishi yoki standart nomiga ega bo'lishi kerak. Sonli qiymatlarni hisoblash uchun arifmetik ifoda qo'llaniladi.

Arifmetik ifodada bo'lish va ko'paytirish amallari qo'shish va ayirish amallaridan oldin bajariladi. **Masalan:** $3 + 2 \cdot 5 - 3$ ifodaning bajarilishidan 10 hosil bo'ladi.

Bir xil o'rinli amallar ishtirok etgan ifodalarda ular chapdan o'ngga qarab bajariladi. **Masalan.** $4 \cdot 6 / 3$ ifoda natijasi 8 ga teng.

Qavs ichiga olingan ifodalar birinchi navbatda bajariladi.

Masalan. $(7-2) \cdot (5+4)$ ifoda natijasi 45 ga teng

Arifmetik ifodada haqiqiy va butun turdagi ma'lumotlar qatnashishi mumkin, natija ham mos ravishda haqiqiy yoki butun bo'ladi.

Oddiy yozuvda	C++ tilida
$\frac{a+12,686}{c_2-1,87 \cdot 10^3} + \gamma$	$(a+12.686)/(C2-1.87E3)+gamma$
$\frac{ 2\sin 4x + x }{3x}$	$fabs(2*\sin(4*x)+x)/(3*x)$
$\frac{2^2 + \ln 1,13}{tg 2x}$	$(2*2+\ln(1.13))/\tan(2*x)$
$\frac{a^2 + 2^{1,17}}{\sqrt{x+y}}$	$(pow(a,2)+pow(2,1.17))/\sqrt{x+y}$
$\frac{ x - y }{1+ xy }$	$(fabs(x) - fabs(y)) / (float)(1 + fabs(x * y))$
$\ln \left \left(y - \sqrt{ x } \right) \left(x - \frac{y}{z + x^2 / 4} \right) \right $	$\log(fabs((y - \sqrt{fabs(x)}) * (x - y / (z + pow(x,2) / 4.0))))$

Mantiqiy ifoda. Mantiqiy ifodalar mantiqiy qiymatlar, mantiqiy va munosabat amallari, arifmetik hamda belgili qiymatlar qatnashib, natijasi **true va false** qiymat bo'lishi mumkin. Unda amallar quyidagi tartibda bajariladi:

1. not (yo'q);

2. * (ko'paytirish), / (bo'lish), div, mod, and (va)

3. + (qo'shish), - (ayirish), or (yoki);

4. < (kichik), <= (kichik yoki teng), = (teng), <> (teng emas), >= (katta yoki teng), > (katta);

Bitta satrda berilgan amallar bir xil bajarilish o'rniga ega. Mantiqiy ifodalarda faqat oddiy qavslar yoziladi.

Masalan. 1) ($A > 3$) and ($B = A + 6$) or not ($c = 4$)

2) ($A \leq x$) and ($x \leq B$) or ($c \leq x$) and ($x \leq d$)

Sinov savollari

1. Standart funksiyalar qanday funksiyalar?
2. Standart funksiyalar qanday yoziladi?
3. Qanday standart funksiyalarni bilasiz?
4. Ifodalarni yozishda C++ da va matematikada qanday farqlar bor?

Uyga vazifa: Standart funksiyalarni yozish, standart bo'lmagan funksiyalarni yozishni, hamda bu funksiyalardan ifodalar tarkibida foydalanish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

6-ma'ruza

Mavzu: C++ tilida dasturning umumiy tuzilishi. Identifikator. C++ tilida chiziqli dastur.

Reja:

1. C++ tilida dasturninmg umiumiy tuzilishi.
2. Identifikator tushunchasi va unga qo'yiladigan talablar.
3. C++ tilida chiziqli dasturlar.
4. Operator tushunchasi.

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda dasturning umumiy tuzilishi to'g'risida amaliy bilimlarni hosil qilish.
2. C++ tizimida chiziqli dastur va uning umumiy tuzilishi to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish.
3. C++ tizimida chiziqli dastur tuzish bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.
4. Identifikator tushunchasi haqida talabalarda to'g'ri tasavvurlar hosil qilish.

Tayanch iboralar: dastur, identifikator, operator, chiziqli dastur.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, ma'ruza bo'yicha slaydlar, C++ tizimi .

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar orqali , jonli muloqotli ma'ruza .

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati– 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

C++ Programmalash tilida dasturning umumiy tuzilishi

C++ Programmalash tilida dasturning umumiy tuzilishini quyidagi oddiy dastur yordamida tushuntiramiz:

```
1. #include <iostream.h>
2. using namespace std;
3. int main( );
4. {int a, b, c, s;
5. a=5; b=12; s=a+b;
6. cout << "a=" <<a<< " b=" <<b<< " s=" <<s;
7. system ("pause");
8. return 0;
9. }
```

C++ Programmalash tilida har qanday dastur 1-satr bilan boshlanadi. Bunda `#include` (o'z ichiga olmoq) so'zi ma'lumotlarni kiritish va chiqarish (o'qish va yozish) funksiyalari va ularning o'zatuvchilari e'loni joylashgan `<iostream.h>` sarlavha faylini dasturga qo'shadi. `<iostream.h>` yozuvi quyidagicha ma'noni bildiradi: **i** (input – kirishi (o'qish)), **o** (output – chiqarish (yozish)), **stream** – oqim (ya'ni ma'lumotlar oqimi), **h** (head – sarlavha).

Juda ko'pchilik yangi komplyatorlar `#include <iostream.h>` o'rniga `#include <iostream>` sarlavha faylidan foydalanish imkonini beradi. Faqat undan keyin `using namespace std;` satrini qo'shish kerak.

2-satrdagi `main( )` funksiyasi berilgan bo'lib, bu funksiya ham (main – bosh, asosiy demakdir), albatta, bo'lishi shart va dastur shu funksiyani bajarish bilan o'z ishini boshlaydi. Uning oldidagi `int` so'zi dastur ijro etilgach, natija butun son sifatida qaytarilishini bildiradi.

C++ Programmalash tilining ba'zi komplyatorlari `int main( )` funksiya prototipi e'lon qilingan bo'lsa ham bu funksiya prototipi e'lon qilinmaganligi haqida xabar beradi. Bunday holda `int main( )` dan oldin `int main( );` funksiya e'lonini ham qo'shish kerak:

```
#include <iostream.h>;
int main( );
int main
{ ... }
```

Dasturdagi boshqa funksiyalarga dasturning qayeridadir murojaat buyrug'i bo'lsagina ular ishga tushadi. Lekin `main( )` asosiy funksiyasiga esa dastur ishga tushgan zahoti murojaat bo'ladi.

4 va 9 - satrlarda { va } qavslari keltirilgan bo'lib, ular blok belgisidir. C++ Programmalash tilida, tarmoqlanish, takrorlanish kabi murakkab buyruqlarga taalluqli buyruqlar ham shunday blok belgilari ichiga olib yoziladi. Bu yerda esa bu belgilar dastur boshlanishi va tugashini bildiradi desak ham bo'ladi yoki dastur tanasining chegaralari yoki **main()** funksiyasi bloke(tanasi) deyish ham mumkin. Ammo bu belgilersiz dastur ishlamaydi.

4-satrdagi **int a, b, c, s;** yozuvi **a, b, c, s** o'zgaruvchilar e'loni deyiladi. Bunda, albatta, ularning turi ko'rsatilgan bo'lishi shart va ular, albatta, bir-birlaridan (,) belgisi bilan ajratib yoziladi.

5-satrdagi qiymat berish buyrug'i (=) yordamida **a, b, s** o'zgaruvchilarga dastlabki qiymatlar berilgan.

a,b,s larga ularni e'lon qilishda ham **int a=5; b=12; s=a+b;** kabi dastlabki qiymatlarini berish (initsializatsiya qilish) mumkin edi.

Ko'rinib turibdiki, C++ Programmalash tilidagi buyruqlar bir-birlaridan (;) belgisi bilan ajratib yoziladi. Faqat sarlavha faylini e'lon qilingandan keyin va bosh funksiya **main()** dan keyin (;) qo'yilmaydi.

6-satrga <iostream.h> sarlavha faylida aniqlangan **cout** operatoridan foydalanilgan bo'lib, undan dasturning xotiradagi natijasini ekranga chiqarish maqsadida foydalaniladi. Bu operatoridan keyin qiymati ekranga chiqarilayotgan barcha o'zgaruvchilar hech qanday tinish belgilarisiz "<<" belgilari bilan ajratib yoziladi. Agar matn(satr) ekranga chiqarilishi kerak bo'lsa, u qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi va C++ tomonidan qayta ishlanmasdan, qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha chop etiladi. Bizning misolimizda "**a=**", "**b=**", "**s=**" yozuvlari matnlardir.

8-satrdagi **return 0;** yozuvi **main()** funksiyasi o'z ishini tugatganligini bildiruvchi (**return** – qaytish) operatoridir. Odatda dastur o'z ishini muvaffaqiyatli yakunlasa, funksiyaga nol qiymati qaytariladi.

Dev C++ variantida esa **return 0;** buyrug'idan oldin **System ("pause");** buyrug'i qo'shilmasa, dastur natijasini ko'rib ulgurmasdan o'chib ketadi. Ushbu kutish buyrug'i **Esc** tugmasi bosilguncha natijani ekranda ushlab turadi.

C++ Programmalash tilida tuzilgan dastur yangi fayl sifatida saqlab qo'yiladi va bu faylning kengaytmasi **.cpp** bo'ladi.

Identifikatorlar va kalit so'zlar

Matematikada bo'lgani kabi C++ Programmalash tilida ham, dastur tarkibida foydalaniladigan o'zgaruvchilar va o'zgarmaslar o'z nomiga ega bo'lishi kerak. Bu nomlar matematikada lotin alifbesining bir, ikkita harflaridan tashkil topadi. C++ Programmalash tilida esa o'zgaruvchi va o'zgarmaslarning nomlari ketma-ket 255 tagacha bo'lan belgilardan tashkil topadi va ular **identifikatorlar** deyiladi. Belgilar deyilganda faqat lotin alifbesining katta va kichik harflari, raqamlar va tag chiziqli (_) tushuniladi.

Shuni unutmaslik kerakki, **identifikator**larni yozishga katta va kichik harflar farqlanadi.

Masalan: **romb** va **Romb**; **n12** va **N12**; **aylana_raduisi** va **Aylana_Radiusi** kabi identifikatorlar boshqa-boshqa identifikatorlardir.

Bundan tashqari C++ Programmalash tilining kalit soʻzlari, funksiya nomlari obyektlar nomlari ham identifikatorlar hisoblanadi.

Agar identifikator ikki yoki undan ortiq soʻzlardan tashkil topgan boʻlsa ham ular bir-birlaridan probel bilan ajratilmaydi. Ular qoʻshib yoziladi. Agar ajratib yozish kerak boʻlsa tag chiziqcha (_)dan foydalaniladi.

Masalan: tenglama_yechimi yozuvi identifikatordir. C++ Programmalash tilining **kalit soʻzlari** deyilganda buyruqlarni tashkil qilishda foydalaniladigan ingliz tilida yozilgan operatorlar (yordamchi soʻzlar) tushuniladi.

Masalan, **if, else, return, while,** kabi soʻzlar kalit soʻzlardir.

C++ Programmalash tilining operatorlaridan identifikator sifatida foydalanib boʻlmaydi.

x, a1, b819, doira, maktab, ptk_meb, Rels89 larning har biri identifikator boʻla oladi. Lekin,

Joʻlap	3ka
dars boʻldi	qovun, tarvuz
while	48
if for	a/bc

lar identifikator boʻla olmaydi

Operator tushunchasi.

Operator soʻzining maʼnosi xizmatchi, yordamchi demakdir. Programmalash tillarining operatorlari – bu dasturni tashkil qilishda yoki inson oʻz fikrini kompyuterga tushunarli tarzda ifodalash uchun zarur boʻladigan yordamchi (xizmatchi) soʻzlardir. Bu soʻzlar baʼzan Programmalash tilining kalit soʻzlari ham deyiladi.

C++ Programmalash tilining operatorlari soni anchagina. Biz ular bilan mavzudan mavzuga oʻtgan sayin ketma-ket tanishib boramiz. Ular dasturda bir-birlaridan (;) belgisi bilan ajratilgan holda yoziladi.

C++ tilining asosiy operatorlari.

Operator - bu qandaydir amalni bajarish toʻgʻrisida kompilyatorga uzatiladigan literal(buyruq)dir. Operatorlar operandlarga taʼsir qiladi. C++ da operandlar deb alohida literallar va butun ifodalar tushuniladi.

C++ tilida dastur tuzishda yuqorida berilgan qiymat berish (=) operatoridan tashqari bir nechta operatorlar maʼlumotlarni kiritish va chiqarish, tarmoqlanish va takrorlanish operatorlari ham ishlatiladi.

Ma'lumotlarni kiritish operatori.

Ma'lumki komputerdan har qanday o'zgaruvchining qiymati xotiraga kiritiladi hamda barcha amallar xotiradagi o'zgaruvchilar ustida bajariladi va natija ham xotirada hosil bo'ladi. Ma'lumotlarni kiritish operatori dasturda o'zgaruvchilarga klaviatura orqali boshlang'ich qiymatlarni berish uchun ishlatiladi.

Ma'lumotlar cin operatori yordamida kiritiladi. Qiymati kiritiladigan o'zgaruvchilar bu operatoridan keyin bir-birlaridan ">>" belgi bilan ajratilgan holda yoziladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

cin>>a1>>a2>>...>>an;

Bu yerda a1,a2,...,an qiymatlari kiritilishi talab etilgan o'zgaruvchilarning nomi.

cin operatori bajarilganda dastur bajarilishi to'xtaydi va kerakli ma'lumotlarni kiritilishini kutadi.

Masalan. cin>>a>>b>>c; bunda operator bajarilganda keyin a,b,c o'zgaruvchilarga tavsifi bo'yicha mos qiymatlarni berish talab etiladi. Kiritilayotgan qiymatlar o'zgaruvchilar qanday tartibda berilgan bo'lsa, ularga va ularning turiga mos qiymatlar bir-biridan bo'shliq(probel) belgisi bilan ajratilgan holda beriladi: 5 6.8 9. Buning natijasida a=5, b=6.8, c=9 qiymatga ega bo'ladi.

Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Kiritilayotgan qiymatlarni o'zgaruvchilar kiritish bo'yicha qabul qiladi, ya'ni cin operatoridagi 1-o'zgaruvchi kiritilgan 1-qiymatni va hokaza n-o'zgaruvchi kiritilgan n-qiymatni qabul qiladi..
2. Kiritilayotgan qiymatlar o'zgaruvchi dasturda tafsivlangan turga mos kelishi kerak, aks holda xatolik sodir bo'lishi mumkin..
3. **cin** operatori dasturning ixtiyoriy joyida va o'zgaruvchilar foydalanishidan oldin kelishi mumkin cin operatori orqali o'zgaruvchilarga alohida-alohida qiymat berish mumkin:

cin>>a; cin>>b; cin>>c; yozuv cin>>a>>b>>c; bilan teng kuchlidir.

Agar cin operatori orqali kiritilayotgan o'zgaruvchilar haqiqiy turga mansub bo'lib, ularga kiritilayotgan qiymatlar butun bo'lsa, ularni haqiqiy son ko'rinishida qabul qiladi. Masalan:

```
int main()
{
    float a,b,c,p,s;

    cin >> a>>b>>c;
```

Kiritilayotgan son mos ravishda 5 6 8 bo'lsa, natijada a=5.0 , b=6.0, c=8.0 ega bo'ladi.

Ma'lumotlarni chiqarish operatori.

Dasturda hosil bo'lgan natijalarni chiqarish uchun chiqarish operatori ishlatiladi. Dastur natijalari **cout** operatori yordamida ekranga chiqariladi.

O'zgaruvchilar **cout** operatoridan keyin bir-birlaridan "<<" belgi bilan ajratilgan holda ko'rsatiladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

cout<<b1<<b2<<.....<<bn; bu yerda **b1,b2,...,bn** chiqarilgan natijalar.

cout operatorida b1,b2,...,bn sifatida quyidalar qatnashishi mumkin:

1. **Qiymati chiqarilayotgan o'zgaruvchilar:** **cout<<x1<<x2;**

2. **Satrlı o'zgarmaslar.** Ular qo'shtirnoq ichiga olingan belgilar va harflar ketma ketligidan iborat bo'lib, dastur ixtiyoriy joyida matn yoki izohlarni chop etish uchun ishlatiladi: **cout<<"a,b,c o'zgaruvchilarga qiymat bering";**

Matnda boshqaruv belgilaridan foydalanish mumkin, masalan '/n'; Bu belgi undan keyin yozilgan ma'lumotni yangi satrdan chop etishni amalga oshiradi:

cout<<"kvadrat tenglamaning ildizlari /n"<<"x1="<<x1<<"x2="<<x2;

Bu operatorning bajarilishida quyidagi hosil bo'ladi:

kvadrat tenglamaning ildizlari

x1=

x2=

3. **Sonli o'zgarmaslar.** Kompyuter yordamida tilning ba'zi bir elementlarini o'rganishda qo'llaniladi. Real Programmalashda undan juda kamdan-kam holda foydalaniladi Masalan: **cout<<6;**

4. **Ifoda.** Qavs ichida yozilgan ifodalar qatnashishi mumkin. Masalan : **cout<<(a+b);**

5. **endl** kalit so'zi. Bu chiqarish manipulyatori deb yurutiladi. Bu so'zdan keyin ma'lumotlar yangi satrdan chiqailadi. Masalan:

int a=2, b=5;

cout<<"n yig'indi "<<(a+b)<<" \n Ko'paytma "<<(a*b); yoki

cout<<endl<<" Cymma "<<(a+b)<<endl<<" Ko'paytma "<<(a*b);

Ikkala operatorning bajarilishida ham bir xil natija hosil bo'ladi.

C++ tilida chiziqli dastur


Yuqorida bayon qilingan qiymat berish, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari yordamida chiziqli dastur tuzish mumkin.

1-misol. Uchburchak tomonlarining uzunliklari bilan berilgan bo'lsa uning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.


Dastur. C++ tilida dastur quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,p,s;
    cout << "Uchburchak tomonlarini kiriting (a+b)>c,(c+a)>b,(c+b)>a
bo'lsin= ";
    cin >> a>>b>>c;
    p=(a+b+c)/2;
    s=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
    cout << "Uchburchakning perimetri: " << p<<" Uchburchakning yu-
zasi= "<<s;
    return 0;
}
```

Bu tuzilgan dasturni ishlatish uchun eng avval **Code::Bloks** muhitini ishga tushirish (*Пуск→Все программы→CodeBloks→CodeBloks*) kerak. Shundan so'ng yangi fayl (*File→New→Project*) yaratiladi. Songra uning ishchi sohasi klaviatura orqali dastur kiritiladi.




Dastur kiritlgandan keyin u kompilyatsiya qilinadi, ya'ni xatoliklar tekshiriladi.



Agar xatolik mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida xabar hosil bo'ladi:

```
Logs & others
Code::Blocks Search results Build log Build messages Debugger Script console
Compiling: C:\Documents and Settings\Администратор\Рабочий стол\C++\A\main32.c
Linking console executable: C:\Documents and Settings\Администратор\Рабочий стол\C++\A\main32.exe
Process terminated with status 0 (0 minutes, 4 seconds)
0 errors, 0 warnings
```

Agar xatolik mavjud bo'lsa u tuzatilib, yana kompilyatsiya qilinadi. Hozirgi holatda xatolik mavjud emas. Endi dasturni bajaramiz:



Bu buyruq bajarilgandan quyidagicha oyna hosil bo'ladi:

```
C:\ "C:\Documents and Settings\Администратор\Рабочий стол\C++\A\main32.exe"
Uchburchak tomonlarini kiriting <a+b>>c,<c+a>>b,<c+b>>a bo'lsin=
```


Bu a,b,c o'zgaruvchilarga qiymat berish kerakligini bildiradi. Biz 6 8 9 qiymatlarni klaviaturadan kiritamiz va enter tugmachasini bosamiz:

```
C:\ "C:\Documents and Settings\Администратор\Рабочий стол\C++\A\main32.exe"
Uchburchak tomonlarini kiriting <a+b>>c,<c+a>>b,<c+b>>a bo'lsin= 6 8 9 _
```

Quyidagicha natija hosil bo'ladi:

```
C:\ "C:\Documents and Settings\Администратор\Рабочий стол\C++\A\main32.exe"
Uchburchak tomonlarini kiriting <a+b>>c,<c+a>>b,<c+b>>a bo'lsin= 6 8 9
Uchburchakning perimetri: 11.5 Uchburchakning yuzisi= 23.5253
Process returned 0 (0x0)   execution time : 340.078 s
Press any key to continue.
_
```

Dasturni a,b,c o'zgaruvchilarning boshqa qiymatlarida ishlatish uchun



Buyrug'ini bajarish yetarli.

2-misol. Arifmetik progressiyaning birinchi hadi, ayirmasi berilgan bo'lsa uning n-hadi va n ta hadlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a1,d,xn,sn;
    int n;
    cout<<"arifmetik progressiyaning 1-hadini kiritng= ";
    cin>>a1;
    cout<<"arifmetik progressiyaning ortirmasini kiriting= ";
    cin>>d;
    cout<<"arifmetik progressiyaning hadlar sonini kiriting= ";
    cin>>n;
    xn= a1+(n-1)*d;
    sn=(a1+xn)/2*n;
    cout<<"arifmetik progressiyaning "<<n<<" hadi= "<<xn;
    cout<<"\narifmetik progressiyaning "<<n<<" ta hadi yig'indisi= "<<sn;
    return 0;
}

```

3-misol. $w = \frac{(x+y)^2}{2}$, $r = \sqrt{2\pi} + w$, $s = \pi r^2 + vw$ ifodani qiymatini hisoblash

dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x,y,w,v,s,r,Pi=3.1415;
    cout << "Ixtiyoriy uchta son kiriting= ";
    cin >> x>>y>>v;
    w=((x+y)*(x+y))/2;
    r=sqrt(2*Pi)+w;
    s=Pi*r*r+v*w;
    cout << "Ifoda= " << s;
    return 0;
}

```

4-misol. Ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

$$z = \frac{6 \ln \sqrt{e^{x+1} + 2e^x \cdot \cos x}}{\ln(x - e^{x+1} \cdot \sin x)} + \left| \frac{\cos x}{e^{\sin x}} \right|.$$

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;

```

```

int main()
{
float x,z;
cout << "x o'zgaruvchiga qiymat bering: ";
cin >> x;
z = 6 * log(sqrt(exp(x + 1) + 2*exp(x)*cos(x))) /
      log(x - exp(x + 3) * sin(x)) + fabs(cos(x) / exp(sin(x)));
cout << "ifodaning qiymati: " << z;
}

```

Nazorat uchun savollar

5. Operator nima?
6. C++ tilida dastur qanday tuzilgan?
7. Dasturning har bir qismini izohlab bering.
8. Ma'lumotlarni kiritish uchun qanday operatorlar ishlatilsadi?
9. Kiritish operatoridan foydalanish usullarini tushintiring.
10. Ma'lumotlarni chiqarish uchun qanday operatorlar ishlatilsadi?
11. Chiqarish operatoridan foydalanishni tushintiring.
12. O'zgaruvchilar qiymati va o'zgarmaslar qanday chiqariladi?
13. C++ tilida dasturi izohlar qanday beriladi?
14. Chiziqli dastur nima?

Uyga vazifa:

1. Ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing:
2.
$$a = \sqrt[3]{x + \sqrt[4]{y}}; \quad b = \sqrt{y} l^{-(y+4/2)},$$
3. Tomonlari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
4. Uchlarining koordinatalari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini topish dasturini tuzing.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

7-ma'ruza

Mavzu: Tarmoqlanuvchi jarayonlarni Programmalash. Shartsiz va shartli o'tish operatorlari.

Reja:

1. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni Programmalash.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni Programmalash.
3. ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar.
4. ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar.
5. Misollar

Darsning maqsadi:

5. Talabalarda Programmalash to'g'risida amaliy bilimlarni hosil qilish.
6. C++ tizimida tarmoqlanuvchi operatorlar ularning uning umumiy tuzilishi to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish.

7. C++ tizimida tarmoqlanuvchi dastur tuzish bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: tarmoqlanuvchi jarayon, shartli operatorlar, tarmoqlanuvchi dastur.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, komputer, ma'ruza bo'yicha slaydlar, C++ tizimi.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar orqali, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarining davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

Tarmoqlanuvchi jarayonlarni Programmalash

Agar dasturning bajarilishi davomida buyruqlar ketma-ketligi biror shartga asosan o'zgarsa, bunday hollarda tarmoqlanish jarayonini tashkil etadigan operatorlardan foydalaniladi. C++ tilida tarmoqlanuvchi jarayonlarga dastur tuzishda tarmoqlanish operatorlaridan foydalaniladi. Tarmoqlanish operatorlari shartli o'tish, shartsoz o'tish va tanlash operatorlaridan iborat bo'ladi.

Shartsiz o'tish operatori.

Bu operator hyech imkon bo'lmay qolgan holda dasturning tabiiy bajarilishini buzib, boshqaruvni dasturning ixtiyoriy joyiga uzatish uchun xizmat qiladi.

O'tish operatori qo'yidagicha beriladi:

goto nishon(belgi);

bu yerda **goto(..ga o'tish)** - operator nomi, **nishon** – bu belgi bo'lib, u harf, harflar yoki harf va sonlar bo'lishi mumkin. Bu operatoridan foydalanish uchun boshqaruv shartsiz ravishda uzatiladigan operator belgilanadi. Operatorni belgilash uchun uning oldiga **nishon** va : qo'yiladi: **nishon : operator;**

Masalan: **goto a;**

.....

a: y=x*x+c;

Bu yerda **goto a;** operatori bajarilgandan keyin boshqaruv to'g'ridan-tog'ri **a:y=x*x+c;** operatorga uzatiladi.

Shartli o'tish operatori.

C++ tilida shartli o'tish operatorining qisqa va to'liq ko'rinish-laridan foydalaniladi.

Qisqa shartli o'tish operatori. **Shartli operatorning qisqartirilgan**

ko'rinishi quyidagicha:

if (ifoda) {s1;s2;...;sn};

Bu yerda **if** kalit so'zi bo'lib, **agar** degan ma'noni bildiradi hamda har doim lotin alifbosining kichik haraflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda** arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amallardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1,s2,..sn** operatorlar ketma-ketligi.

Bu operator quyidagicha bajariladi: agar mantiqiy ifodaning qiymati rost (**true**) bo'lsa **{s1;s2;...;sn;}** operatorlar ketma – ketligi bajariladi, aks holda keyingi qatorga o'tiladi.

1-misol.

$$y = \begin{cases} \cos x + 2x, & \text{agar } x < 3 \text{ bo'lsa} \\ \sqrt[4]{x^3}, & \text{agar } x \leq 3 \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad \text{ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.}$$

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x,y;
    cout << "x o'zgaruvchining qiymatini kiriting = ";
    cin >> x;
    if (x<3)    { y=cos(x)+2*x; goto a1;}
    y=pow(x,4/3);
    a1: cout << "Ifodaning qiymati: " << y;
    return 0;
```

Dasturda:

- 1) standart funksiyalardan foydalanilgani uchun qo'shimcha **#include <math.h>** chaqirildi;
- 2) x va y o'zgaruvchilar haqiqiy turga mansub bo'lganligi uchun x o'zgaruvchiga klaviaturadan ixtiyoriy qiymat beriladi;
- 3) agar $x < 3$ dan kichik bo'lsa $y = \cos x + 2x$ funksiyasi hisoblanadi va jarayon **goto a1;** orqali natijani chiqarish operatoriga uzatiladi. Bu yerda **y=cosx+2x; goto a1;** lar birga kelgani uchun alohida **{ }** belgilar ichiga olingan.
- 4) Agar $x < 3$ shart bajarilmasa u holda **y=pow(x,4/3);** operator bajariladi va natija chiqariladi.

2-misol. Berilgan sonning juft yoki toqligini aniqlash dasturini tuzing:

Dastur.


```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main ( )
{ int n;
  cout << "Ixtiyoriy butun sonni kiriting ";
  cin>>n;
  if(n%2 == 0) cout << "\n bu "<<n<<" soni juft "<<endl;
```

```


if (n%2!= 0) cout << "\n bu "<<n<<" soni toq "<<endl;
return 0;
}

```


Dasturga izoh. Dastur bajarilganda ekranda quyidagicha yozuv hosil bo'ladi:



Ixtiyoriy butun son beramiz:



Quyidagi natija hosil bo'ladi:



C++ tilida dastur tuzish jarayonida goto operatoridan foydalanish uncha maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun tarmoqlanish operatorining boshqa ko'rinishlaridan foydalaniladi.

To'liq shartli o'tish operatori. Shartli operatorning to'liq ko'rinishi quyidagicha:

if (ifoda) {s1;s2;...;sn;} else {p1;p2; ...;pm;}

Bu yerda **if** va **else** kalit so'zlar bo'lib, mos ravishda **agar** va **aks holda** degan ma'noni bildiradi hamda ular har doim lotin alifbosining kichik harflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda** arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amallardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1;s2;...;sn;** va **p1;p2; ...;pm** lar operatorlar ketma-ketligi.

Bu operator quyidagicha bajariladi: agar mantiqiy ifodaning qiymati rost (**true**) bo'lsa **{s1;s2;...;sn;}** operatorlar ketma – ketligi bajariladi, aks holda **{p1;p2; ...;pm;}** operatorlar ketma – ketligi bajariladi. Bu yerda bir nechta operatorlar birgalikda kelsa ular **{ }** belgilar ichiga olinadi.

Masalan. a) if (x<0) i=i+1 else k=k+1;

b) if (a>=0) y=sqrt(a+1) else y=pow(a,2);

1-misol.

$$y = \begin{cases} \cos x + 2x, & \text{agar } x < 3 \text{ bo'lsa} \\ \sqrt[4]{x^3}, & \text{agar } x \leq 3 \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad \text{ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.}$$

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()

```

```

{
    float x,y;
    cout << "x o'zgaruvchining qiymatini kiriting = ";
    cin >> x;
    if (x<3) y=cos(x)+2*x;
    else y=pow(x,4/3);
    cout << "Ifodaning qiymati: " << y;
    return 0;
}

```

2-misol. Berilgan uchta a,b,c haqiqiy sonlaridan eng kattasini topish dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,z,max;
    cout << "Ixtiyoriu 3 ta haqiqiy qiymatni kiriting: ";
    cin >> a>>b>>c;
    if (a>b)
        z=a; else z=b;
    if (z>c)
        max=z; else max=c;
    cout << "Sonning kattasi= " << max;
    return 0;
}

```

C++ tilida shartli o'tish operatoridan foydalanishda mantiqiy **or (&&)**, **and (| |)**, **not(!)** amallarini ham qo'llash mumkin:

- a) if ((x<y) and (x<c)) z=2*x+y; else z=pow(x,3)+pow(y,4) ;
- b) if ((a==0) or (b==0) or (c==0)) goto d5;

3-misol. $ax^2 + bx + c = 0$ ($a \neq 0$, $b \neq 0$, $c \neq 0$) kvadrat tenglamaning ildizlarini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,d,x1,x2;
    b:cout << "Kvadrat tenglama koefitsientlarini kiritng a<>0,b<>0,c<>0 bo'lsin= ";
    cin >> a>>b>>c;
    if ((a==0) or (b==0) or (c==0)) goto b;
    d=b*b-4*a*c;
    if (d<0)
    {

```

```

    cout<<"Haqiqiy yechim mavjud emas";
    return 0;
}
if (d>0)
{x1=(-b+sqrt(d))/(2*a);
x2=(-b-sqrt(d))/(2*a);
    cout << "Ikki yechim mavjud: x1= " << x1<<" x2= "<<x2;
} else cout<< "Karrali yechim mavjud: x1=x2="<<x1;
    return 0;
}

```

Shartli o'tish operatorlari **ichma- ich joylashgan** ko'rinishda ham bo'lishi mumkin: **if (B1) S1; else if (B2) S2; else S3;** Bu yerda **B1,B2** - mantiqiy ifodalarni, **S1,S2,S3** - operatorlar. Bu operatorlarda **if (B2) S2; else S3;** ichki operator **B1** mantiqiy ifodaning qiymati *yolg'on(false)* bo'lsa bajariladi.

```

if ( 1-ifoda )
    1-operatorlar ketma-ketligi;
else if (2-ifoda )
    2-operatorlar ketma-ketligi; ...
    else if (n-ifoda )
        n-operatorlar ketma-ketligi;
    else
        (n+1)-operatorlar ketma-ketligi;

```

Ichma- ich joylashgan shartli operatorning boshqacha ko'rinishi quyidagicha: **if (B1) if (B2) S1; else S2; else S3;**

Ichki joylashgan **if (B2) S1; else S2;** operator **B1** ifoda *chin(true)* qiymatga ega bo'lsa bajariladi va buni C++ tilida quyidagicha, ya'ni har bir ichki va tashqi shartli operatorlarni alohida { } belgilari ichiga yozish maqsadga muvofiq:

```

    if (B1)
    { if (B2) S1; else S2;}
    else S3;

```

Umumiy holda ichma- ich joylashgan shartli operatorni quyidagicha yozish mumkin:

```

if ( 1-ifoda )
    1-operatorlar ketma-ketligi;
else if (2-ifoda )
    2-operatorlar ketma-ketligi; ...
    else if (n-ifoda )
        n-operatorlar ketma-ketligi;
    else
        (n+1)-operatorlar ketma-ketligi;

```

Masalan: **if (d or b) { if (x<0) x:=2+x; }
 else { if (x<y) x:=x+0.5; else y:=y+0.5; }**

Misol. Talabalarni test yakunlari bo'yicha baholash dasturini tuzing.
 (eng yuqori bal x=100).

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x;
    cout << "Talabanning balini kiriting = ";
    cin>>x;
    if (x>=85) cout<<"\ta'lo"; else
        { if ((x<85) and (x>=75)) cout<<"\tyaxshi";
          else { if ((x<75) and (x>=55)) cout<<"\tqoniqarli";
                else cout<<"\tqoniqarsiz";}
        }
    return 0;
}

```

Nazorat uchun savollar

1. Tarmoqlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni Programmash uchun qanday operatorlar ishlatiladi?
3. Shartli o'tish operatori qanday tuzilmalarga ega?
4. To'liq shartli o'tish operatorini bajarilishini tushuntiring.
5. Murakkab shartli o'tish operatorlari qanday bo'ladi?
6. Shartsiz va shartli o'tish operatorlarini vazifasini tushuntiring.
7. Tanlash operatorining vazifasi nimadan iborat va uning umumiy ko'rinishi?
8. Tanlash operatorining shartli operatoridan farqi qanday?
9. ? shart operatorini bajarilishini tushuntiring.
10. Nima uchun goto operatori ko'p ishlatilmaydi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. a,b,c sonlarini o'sish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.
2. a,b,c kesmalar uzunliklari bilan berilgan. Ular orqali uchburchak yasash mumkin yoku mumkin emasligini aniqlash dasturini tuzing.
3. Yuzasi S1 ga teng bo'lgan doira, yuzasi S2 ga teng bo'lgan kvadtaga joylashishini aniqlash dasturini tuzing .
4. Koordinatalari bilan berilgan a(x,y) nuqtani koordinatalar tekisligida joylashish o'rnini aniqlash dasturini tuzing.
5. Berilgan ikkita a va b sonlarining kichigini ularning yig'indisi, kattasini esa ularning ko'paytmasi bilan almashtirish dasturini tuzing.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

8-ma'ruza

Mavzu: Takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalash. Sikl operatorlari.
Parametrli sikl operatori.

Reja:

1. Sikllik jarayonlarni shartli operatorlar orqali Programmalash.
2. Sikl operatorlari. Parametrli sikl operatori.
3. Misollar.

Darsning maqsadi:

1. Talabalarda takrorlanuvchi jarayonlar to'g'risida asosiy bilimlarni hosil qilish.
2. C++ tizimida sikl operatorlari operatorlari orqali Programmalash to'g'risida ko'nikmaga ega bo'lish.
3. C++ tizimida takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalashga doir mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: *takrorlanuvchi jarayon, takrorlanuvchi dastur, for, while, do-while, break, continue operatorlari orqali dastur tuzish.*

Dars o'tish usuli: *namoyish dasturiy vositalar orqali, jonli muloqotli ma'ruza.*

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: *xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati*– 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: *o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish* - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Ma'ruza bayoni

Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo'ladiki, bunda bu jarayonning ayrim bo'laklarini bir necha marta takroran hisoblashga to'g'ri keladi. Bunday jarayonlar **takrorlanuvchi yoki siklli** jarayonlar deyiladi. Siklli jarayonlarni Programmalashda sikl operatorlaridan foydalaniladi, ya'ni dasturda bitta yoki bir nechta parametrlarning bir vaqtda o'zgarishida bir gurux operatorlarni hisoblash ko'p marotaba takrorlanadi. Masalaning qo'yilishiga qarab sikllar **takrorlanish soni ma'lum bo'lgan** va **takrorlanish soni noma'lum** bo'lgan sikllarga bo'linadi.

Sikllik jarayonlarni shartli operatorlar orqali Programmalash.

Bunday holda sikl parametrining boshlang'ich qiymati berilgan bo'lishi kerak. Hisoblash shu parametr bilan bajariladi va qadam qiymati bilan o'zgartiriladi, hamda siklning tamom bo'lish sharti tekshiriladi. Agar sikl tugagan bo'lmasa, hisoblash davom ettiriladi.

Misol. $S = \sum_{i=1}^{20} \frac{i}{2} + 1$ ni hisoblash dasturini tuzing.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
```

```

{
    int i; float S;
    S=0; i=0;
    a1: i=i+1;
    S=S+(i/2+1);
    if (i<=20) goto a1;
    cout << "Ifodaning qiymati: " << S;
    return 0;
}

```

Sikl operatorlari. Parametrli sikl operatori.

C++ tilida sikllarni tashkil qilish bir nechta sikl operatorlaridan foydalaniladi. Bu sikl operatorlarining 3 turi mavjud: **parametrli, sharti oldin berilgan va sharti keyin berilgan sikl operatorlar**. Ularni tartib bilan ko'rib chiqamiz.

Parametrli sikl operatori. Agar sikllik jarayonlarda takrorlanish soni oldindan ma'lum bo'lsa, ko'p hollarda parametrli sikl operatoridan foydalaniladi.

Parametrli sikl operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

```

    for (x=x0; x<=xn; x=x+xqad)
    { 1-operator; 2-operator;...;k-operator;}

```

Bu yerda **for (uchun)** - xizmatchi so'z; **x- sikl parametri** deb ataluvchi o'zgaruvchi; **x₀, x_n** - sikl parametrining mos ravishda **boshlangich va oxirgi qiymatlari**; **x_{qad}** - **sikl parametrining o'zgarish qadami**; **{ 1-operator; 2-operator;...;k-operator;}**- **sikl parametrning qabul qiladigan har bir qiymatida takroran bajariladigan operatorlar**. Agar bu operatorlar bittadan ko'p bo'lsa { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

Sikl parametri o'zining boshlang'ich qiymatini oladi va oxirgi qiymati bilan solishtiriladi. Agar **x<=x_n** mantiqiy ifodaning qiymati true yoki 0 dan farqli bo'lsa operatorlar bir marta bajarilib, sikl parametri **x_{qad}** qadamga ortadi va yana **x<=x_n** shart tekshiriladi va hakazo bu jarayon **x>x_n** bo'lguncha davom etadi. Boshqacha aytganda, parametrli sikl operatorida sikl parametri **x boshlang'ich qiymat x₀ dan oxirgi qiymat x_n gacha** bo'lgan qiymatlarni **x_{qad}** bilan o'zgarishda qabul qiladi. Uning har bir qiymatida **operatorlar** ketma-ketligi bajariladi

Masalan: **for (n=0; n<=5; n=n+1;)**
y=pow(2,n);

Bu yerda sikl parametri **n** besh marta takrorlanadi va o'zgaruvchi **y** ketma-ket **2⁰, 2¹, 2², 2³, 2⁴, 2⁵** qiymatlarni qabul qiladi, **n=5** bo'lganda hisoblash to'xtatiladi.

Misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;

```

```

s=0; p=1;
cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
cin>>n;
for (i=1; i<= n; i=i+1)
{ s=s+i; p=p*i;}
cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
return 0;
}

```

Parametrli sikl operatorlarida **inkrement** va **dekrement** (+=, -=, *=, ++, **, --) amallaridan foydalanish mumki. Yuqoridagi dasturni quyidagicha ham yozish mumkin:

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;
    s=0; p=1;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    for (i=1; i<= n; i++)
    { s+=i; p*=i;}
    cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
    return 0;
}

```

1-misol. $S = \sum_{i=1}^n (2i + 1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s;
    s=0;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    for (i=1; i<= n; i=i+1)
    s=s+(2*i+1);
    cout << "yig'indi =" <<s;
    return 0;
}

```

2-misol. Kiritlgan sonlarning eng kattasini topish dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream.h>
#include <math.h>
int main ()
{

```

```

int i, n, a, max;
cout<<("kiritilayotgan sonlar soni: ");
cin>>n;
cout<< n<<'\n';
cin>>max;
    for(i = 1; i < n ; i++)
    {
        cin>>a;
        if(a > max)
            max = a;
    }
cout<< max;
return 0;
}

```

3-misol. Kiritilgan sonni tub yoki tub emasligini aniqlovchi dastur tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream.h>
#include <math.h>
int main()
{
    int i, a, n=0;
    cout<<("Ixtiyoriy butun son kiriting: ");
    cin>>a;
    for ( i=2; i<a; i++)
    {
        if (a%i == 0) n++;
    }
    if (n == 0 )
        cout<< '\t'<<a<<" soni tub\n";
    else
        cout<<'\t'<<a<<" tub son emas\n";
    return 0;
}

```

9-ma'ruza

Mavzu: Takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalash. Sharti oldin qo'yilgan sikl (while)operatori. Sharti keyin qo'yilgan (do..while) sikl operatori.

Reja:

1. Sikllik jarayonlarni shartli operatorlar orqali Programmalash.
2. Sikl operatorlari. Parametrli sikl operatori.
3. Misollar.

Darsning maqsadi:

4. Talabalarda takrorlanuvchi jarayonlar to'g'risida asosiy bilimlarni hosil qilish.
5. C++ tizimida sikl operatorlari operatorlari orqali Programmalash to'g'risida ko'nikmaga ega bo'lish.

6. C++ tizimida takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalashga doir mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: *takrorlanuvchi jarayon, takrorlanuvchi dastur, for, while, do-while, break, continue operatorlari orqali dastur tuzish.*

Dars o'tish usuli: *namoyish dasturiy vositalar orqali, jonli muloqotli ma'ruza.*

Darsning xrono xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: *xonaning tozaligi, jihozlanikishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati*– 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: *o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabala bilan savol javob o'tkazish* - 10 minut.

Yangi mavzu bayoni - 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Sharti oldin qo'yilgan sikl (while) operatori.

Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha: **while B {s1;s2;...;sn}**- bu yerda **while** (toki) xizmatchi so'z, **B**- mantiqiy ifoda, **{s1;s2;...;sn}**-operatorlar.

Bu operatorida **{s1;s2;...;sn}** operatorlar ketma-ketligi bajarilmasligi yoki bir martadan ortiq bajarilishi mumkin, chunki **{s1;s2;...;sn}** operatorlarning har bir bajarilishidan oldin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Agar **B** mantiqiy ifoda birinchi hisoblanishidayoq *yolg'on qiymatni* qabul qilsa, **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bir marta ham bajarilmaydi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda siklik jarayonning tugallanish sharti **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bajarilishidan oldin tekshiriladi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi sikl operatori - *sharti oldin qo'yilgan sikl operatori* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

Masalan: 1) **y:=1; k:=0; m:=5; while y<=m { y:=y+3; k:=k+;}**

2) **x:=3; y:=1; v:=1; eps:=0,0001;**

while abs(v)>=eps { V:=(x/y-y); y:=y+v; }

1-misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main ( )
```

```
{
```

```
int n,i; float s,p;
```

```
s=0; p=1;i=1;
```

```
cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
```

```
cin>>n;
```

```
while (i<= n)
```

```
{ s=s+i; p=p*i;i=i+1;}
```

```
cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
return 0;
}
```

2-misoll. $S = \sum_{i=1}^n (2i+1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s;
    s=0;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    while (i<= n)
    { s=s+(2*i+1);i=i+1;}
    cout << "yig'indi =" <<s;
    return 0;
}
```

Bu misolda qaysi operatoridan foydalanish - **for** yoki **while** danmi farq qilmaydi. Agar takrorlanish soni ma'lum bo'lsa, **for** operatori ishlatiladi, takrorlanish soni ma'lum bo'lmasa **while** operatori qo'llaniladi.

3- misol. $S = \sum_{i=1}^{\infty} \frac{1}{2i}$ yig'indini ε aniqlikda hisoblash dasturini tuzing.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,eps;
    s=0; i=1;
    cout<<"Ixtiyoriy juda kichik son kiritng";
    cin>>eps;
    while (1./(2*i)>eps)
    { s=s+1./(2*i);i=i+1;}
    cout << "yig'indi =" <<s;
    return 0;
}
```

Sharti keyin qo'yilgan (do..while) sikl operatori.

Bu operator takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarida takrorlanishlar soni ma'lum, noma'lum bo'lgan holatlarda ishlatiladi. Operatorning umumiy ko'rinishi quyidagicha Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha: **do {s1;s2;...;sn ;} while B** bu yerda **while** (toki), **do**(bajar)- xizmatchi so'zlar, **B**-mantiqiy ifoda, {s1;s2;...;sn ;} -operatorlar ketma-ketligi..

Bu operatorlarda $\{s_1; s_2; \dots; s_n\}$ operatorlar ketma-ketligi hech bo'lmaganda bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin, chunki $\{s_1; s_2; \dots; s_n\}$ operatorlarni bajarilgandan keyin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa $\{s_1; s_2; \dots; s_n\}$ operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Bu operatorlarda siklik jarayonning tugallanish sharti $\{s_1; s_2; \dots; s_n\}$ operatorlarni bajarilgandan keyin tekshiriladi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi sikl operatori - *sharti keyin qo'yilgan sikl operatori ham* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular $\{ \}$ belgi ichiga olinadi.

Operatorning bajarilishida **do...while** operatorlari orasida joylashgan operatorlar ketma-ketligi bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin. Bu jarayon qo'yilgan mantiqiy ifoda **yolg'on qiymat** qabul qilgunga qadar davom etadi.

do..while operatorining **while** operatoridan farqi shundaki, bunda eng avval operatorning qiymati hisoblanib, so'ngra qo'yilgan shart tekshiriladi. Bu esa bunda berilgan operatorning hech bo'lmaganda bir marta bajarilishiga imkon yarata-di.

Masalan.

```
y:=1;
do
    v:=(2*x/y-3*y)/2; y:=y+2*v
while( abs(v)<eps);
```

1-misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
# include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;
    s=0; p=1;i=1;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    do
    {s=s+i; p=p*i; i=i+1;}
    while (i<= n);
    cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
    return 0;
}
```

2-misoll. $S = \sum_{i=1}^n (2i + 1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
# include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
```

```

int n,i; float s;
s=0;
cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
cin>>n;
do
{ s=s+(2*i+1);i=i+1;}
while (i<= n);
cout << "yig'indi =" <<s;
return 0;
}

```

Takrorlanuvchi jarayonlarda takrorlanishlar soni ma'lum bo'lmagan holda ham **do... while** operatoridan foydalanish mumkin.

3- misol. $S = \sum_{i=1}^{\infty} \frac{1}{2^i}$ yig'indini ε aniqlikda hisoblash dasturini tuzing.

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
int n,i; float s,eps;
s=0; i=1;
cout<<"Ixtiyoriy juda kichik son kiriting";
cin>>eps;
do
{ s=s+1./(2*i);i=i+1;}
while (1./(2*i)>eps);
cout << "yig'indi =" <<s;
return 0;
}

```

Sinov savollari

1. Takrorlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Qanday takrorlash operatorini bilasiz?
3. while, do-while operatorlari qanday ishlaydi?
4. For operatoridan foydalanish tartibini tushuntiring.
5. Boshqaruv operatorlari qayerda ishlatiladi?

Uyga vazifa : C++ tizimida for, while, do-while, break, continue operatorlari yordamida takrorlanuvchi dastur tuzish qoidalarini mukammal o'rganish va ularga doir misollar keltirish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Continue va break operatorlari

continue operatori sikl tanasining qolgan qismini o'tkazib yuborish uchun ishlatiladi, ya'ni u takrorlanish tanasi bajarilishini to'xtatib, keyingi qadamga o'tishni ta'minlaydi. **while** va **do ... while** operatorlarida u boshqaruvni sikl shar-

tini qayta tekshirish uchun uzatadi, ya'ni **while** keyin qavs ichida yozilgan ifoda hisoblanadi va tahlil qilinadi, so'ngra agar u rost bo'lsa siklni ishlashi davom etadi.

for operatorida qiymatni oshirish qismi bajariladi, so'ngra shart tekshiriladi, agar u rost bo'lsa sikl bajariladi.

Misol. 1 dan n gacha sonlar ko'paytmasini hisoblash dasturini **while** va **continue** operatorlari yordamida tuzing.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    int i,n;
    float p;
    cin>>n;
    i=1; p=0;
    while( i>n) continue;
    {p=p+i*i;i=i+1;}
    cout<<p;
    return 0;
}
```

break operatori:

- 1) **switch** operatori ishini to'xtatish uchun ishlatiladi;
- 2) yuqorida bayon qilingan **for**, **while**, **do..while** sikl operatorlaridan chiqib ketishni amalga oshiradi.

C++ tilida **break** operatori dasturni bajarishni to'xtatadi va **break** operatori joylashgan blokdan chiqib, undan keyingi operatorlarni bajarishga o'tadi.

Masalan, kiritilgan tartib raqami bo'yicha hafta kunini chop etish dasturi.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main()
{
    int kun;
    cin >> kun;
    switch(kun){
        case 1: cout << "Dushanba"; break;
        case 2: cout << "Seshanba"; break;
        case 3: cout << "Chorshanba"; break;
        case 4: cout << "Payshanba"; break;
        case 5: cout << "Juma"; break;
        case 6: cout << "Shanba"; break;
        case 7: cout << "Yakshanba"; break;
    }

    return 0;
}
```

1-masala.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main()
{
    int n=1000;
    int sum=0,i=1;
    while(i<=n)
        sum+=i++;
    cout<<"sum="<<sum<<endl;
}
```

2-masala.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main()
{
    int n=1000;
    int sum=0;
    for (int i=1; i<=n; i++)
        sum+=i;
    cout<<"sum="<<sum<<endl;
}
```

3-masala. Toq sonlar kvadratlarini hisoblash

```
#include <stdio.h>
#include <conio.h>
void main()
{
    i n t X = 1; // chislo
    int u; // sonning kvadrati
    int i; // sikl sanagichi
    printf("Tablisa kvadratov\n");
    printf (" \n");
    printf("Chislo\tKvadpat\n");
    printf (" \n") ;
    for (i = 1; i <= 10; i++)
    {
        u = x*x;
        printf("%3i\t%4i\n", X, y);
        X += 2;
    }
    printf (" \n") ;
    printf("\nDlya zaversheniya najmite <Enter>");
    getch();
}
```

4-masala. Summaning birinchi p ta hadlarini hisoblaydigan dastur tuzing: 1, 3, 5, 7 ... Yig'indi elementlari soni dasturning ish vaqtida beriladi.

// Summa hisoblanadi: 1,3,6,9 ...

```
#include <stdio.h>
```

```
#include <conio.h>
```

```
void main()
```

```
{
```

```
int e; // qator elementi
```

```
int n;
```

```
int suitim = 0 ; // qator xususiy yig'indisi
```

```
int i; // sikl sanagichi
```

```
printf("Qatorning xususiy yig'indisini hisoblash: " );
```

```
printf("1,3,6,9, ...\p");
```

```
printf("Yig'iladigan elementlar sonini kiriting -> " );
```

```
scanf("%i", &p);
```

```
ye = 1;
```

```
for (i = 1; i <= n; i++)
```

```
{
```

```
    suinm += e;
```

```
    e += 2;
```

```
}
```

```
printf("Summa pervyx %i chlenov ryada ravna %i", n, suram);
```

```
printf("\pDlya zaversheniya najmite <Enter>");
```

```
getch();
```

```
}
```

5-masala. Yig'indini hisoblaydigan dastur tuzing: $1+1/2+1/3+1/4+..$

// $1+1/2+1/3+..$ hisoblanadi

```
#include <stdio.h>
```

```
#include <conio.h>
```

```
void main()
```

```
{
```

```
int n;
```

```
float i;
```

```
float elem;
```

```
float suram = 0 ;
```

```
printf("Вычисление частичной суммы ряда");
```

```
printf("1+1/2+1/3+..\p");
```

```
printf("Введите кол-во суммируемых членов ряда\p");
```

```
printf("-> " );
```

```
scanf("%i",&n);
```

```
suram = 0;
```

```
for (i = 1; i <= n; i++) {
```

```
    elem = 1 / i;
```

```
    summ += elem;
```

```
}
```

```
printf("Summa pervyx %i", n);
printf(" chlenov ryada ravna %6.3f",summ);
printf("\pDlya zaversheniya najmite <Enter>");
getchO ;
}
```

6-masala. O'nlik sanoq sistemasida kiritilgan soni ikkilikga o'tkazish dasturi.

```
#include <stdio.h>
#include <conio.h>
void main()
int dec; // desyatchnoye chislo
int v; // ves formiruyemogo razryada
int i; // nomer formiruyemogo razryada
printf("\pPreobrazovaniye desyatchnogo chisla v dvoichnoye\n");
printf("Vvedite seloye chislo ot 0 do 255")/
printf ("i najmite <Enter>");
printf("-> ");
scanf("%i", &dec);
printf("Desyatchnomu chislu %i sootvetstvuyet dvoichnoye ",dec) ;
V = 128; // ves starshego (vosmogo) razryada
for (i = 1; i <= 8; i++)
{
if (dec >= v)
{
printf("1");
dec -= v;
}
else printf("0");
V = V / 2; // ves sleduyushyego razryada v dva raza menshe
}
printf("\pDlya zaversheniya najmite <Enter>");
getch();
}
```

7-masala. $u = x*x + 2$ funksiyaning -4 va 4 oraliqdagi 0,5 qadamdagi qiymatlarini hisoblash dasturi

```
#include <stdio.h>
#include <conio.h>
void main()
{
float x,dx; // argument i yego priramyeniye
float x1,x2; // diapazon izmeneniya argumenta
float u; // znacheniye funktsii
x1 = -4;
x2 = 4;
dx = 0.5;
```

```

X = x1;
printf (" \p" );
printf (" \ I u\p");
printf (" \p" );
while (x < x2) {
u = x*x + 2;
printf ("%3.2f 1 %3.2f\n", X, u);
X += dx;
}
printf (" \n" );
printf ("\pDlya zaversheniya najmite <Enter>");
getch ();
}

```

Sinov savollari

1. Takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalash qanday amalga oshiriladi?
2. Qaysi sikl operatorlarining imkoniyatlari keng?
3. Programmalash jarayonini tushuntiring.
4. Sikl operatorlarining farqi nimada?

Uyga vazifa : *C++ tizimida takrorlanuvchi jarayonlarni Programmalash qoidalarini mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.*

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Ichma-ich joylashgan sikllar.

